Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tadqiqotlari Osiyoda savdoni yengillashtirish islohotlari orqali savdo xarajatlarini 17,2% ga kamaytirish mumkinligini, Yevropa va Markaziy Osiyoda esa 14,8% ga kamaytirish mumkinligini baholaydi[16].

Milliy yagona darcha (MYD) tizimi chegara nazoratini yaxshilashning amaliy vositasini taqdim etadi. MYDning chegara nazorati tartiblarini soddalashtirish, vaqt va xarajatni kamaytirish ta’siri yaxshi hujjatlashtirilgan:

Singapur MYOni qabul qilganidan keyin, savdo hujjatlarini qayta ishlash vaqti 4 kundan 15 daqiqagacha qisqargan, to‘lovlar 6-13$ dan 2.10$ ga qisqargan, topshiriladigan hujjatlar soni 4-20 tadan, 1 ta elektron hujjatga o‘zgargan[17]. Tailandda MYD yordamida savdoni yengillashtirish ortiqcha jarayonlarni yo‘q qildi va eksport muddati 2006-yildagi 24 kundan 2009-yilda 14 kungacha qisqardi. Xitoy, Gonkongda MYDdan yillik tejash HK$1,3 milliard deb baholangan. Koreya Respublikasida avtomatlashtirilgan axborot tranzaksiyasi tizimi taqdim etuvchi uTradeHubdan biznes hamjamiyatining jami tejashlari $1,819 milliard deb baholangan[18]. Tejashlarga quyidagilar kiradi: e-hujjatlardan foydalanish orqali uzatish xarajatlarini kamaytirish, ma’muriy ishlarni avtomatlashtirish orqali unumdorlikni oshirish, va IT yordamida ma’lumot va hujjatlarni boshqarish, saqlash va qayta olishni yaxshilash.

Hozirgi kunda JSTga a’zo bo‘lgan davlatlarning 111 tasi Milliy yagona darcha tizimidan foydalanishadi[19] va MYDlar turli rivojlanish bosqichlarida.

1-jadval

Milliy yagona darcha tizimidan foydalanayotgan davlatlar[20]

10 yildan ortiq vaqt ishlayotgan MYOlar, mamlakatdagi barcha davlat organlarni qamrab oladi	**MYO joriy qilingan, lekin hali barcha davlat tashkilotlarni to‘liq qamrab olish yo‘lida**	**MYO asoslarini kuchaytirish harakatida**
Indoneziya (INSW)[21],	Kanada (SWI)[22],	Avstraliya
	Chili (SICEXChile)[23],	Maldiv orollari
Singapur (NTP/TradeNet)[24]	Kosta Rika (VUCE CR)[25],	Bangladesh
	Keniya (Kenya TradeNet)[26],	Buyuk Britaniya
Janubiy Koreya (UNIPASS/uTradeHub)[27]	Yangi Zelandiya (TSW)[28],	
	Pokiston (PSW)[29],	
	Peru (VUCE PERÚ)[30],	
	AQSh (ACE)[31]	

Masalan, Buyuk Britaniya Single Trade Window (Preparation) Regulations va Electronic Trade Documents Act (ETDA) asosida o‘zining MYO tizimini rejalashtirmoqda[32].

[15] Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi
[16] OECD. 2018. Trade Facilitation and the Global Economy. Paris.
[17] https://www.customs.gov.sg/businesses/national-single-window/tradenet/
[18] https://www.adb.org/sites/default/files/publication/794341/national-single-window-guidance-note_1.pdf#page=15
[19] https://tfadatabase.org/en/information-for-traders/operation-of-the-single-window
[20] https://www.tradeready.ca/2024/featured-stories/simplifying-international-trade-with-single-windows/
[21] https://insw.go.id/
[22] https://www.cbsa-asfc.gc.ca/prog/sw-gu/menu-eng.html
[23] https://www.sicexchile.cl/
[24] https://www.customs.gov.sg/businesses/national-single-window/tradenet/
[25] https://www.vuce.cr/en/about-vuce
[26] https://www.kentrade.go.ke/single-window-system
[27] https://www.utradehub.or.kr/
[28] https://www.tsw.govt.nz/external/application/login/app.html
[29] https://www.psw.gov.pk/
[30] https://www.vuce.gob.pe/
[31] https://www.cbp.gov/trade/automated
[32] https://www.gov.uk/government/publications/uk-single-trade-window-discussion-paper

2-jadval

Mavrikiy, Shvetsiya, Niderlandiya va AQSHning Yagona darcha tizimini yaratishdagi tajribalari[33]

Bo‘lim	Mavrikiy	Shvetsiya	Niderlandiya	AQSH
Tizim nomi	TradeNet	Virtual bojxona idorasi - Virtual Customs Office (VCO)	VIPPROG / Yuklarni rasmiylashtirish punkti /Cargo Clearance Point (CCP)	Xalqaro savdo ma'lumotlari tizimi (ACE tarkibida)
Boshlanishi	1994 (bosqichma-bosqich joriy qilingan)	2000-yillar, davlat siyosati asosida	1994 (CCP tashkil etilgan)	1990-yillar (FACET tavsiyasi, vitse-prezident topshirig‘i)
Texnologiya	EDI asosida, elektron deklaratsiya va hujjatlar	Internet, EDIFACT, SMS xabarnoma	EDI (IATA Freight Forward Message, SITA – Cargonaut orqali)	Internet, xalqaro data standartlari (WCO, UN/CEFACT, ISO)
Ishtirok-chilar	Bojxona, Ekspeditorlar, Yuk tashish agentlari, banklar, hukumat agentliklari, biznes	Bojxona, Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Savdo kengashi, Politsiya, Soliq boshqarmasi, Shvetsiya Statistikasi	Bojxona, 10+ nazorat agentliklari (immigratsiya, sog‘liqni saqlash, veterinariya, transport, o‘simlik nazorati)	CBP (Customs), PGA’lar, interagency Board of Directors
Moliyalash tirish	Davlat-xususiy sheriklik, xizmat pullik (“pay-as-you-use”)	To‘liq davlat mablag‘i, barcha xizmatlar bepul	Bojxona – Cargonaut’ga to‘lov qiladi, hamkorlik asosida	Federal hukumat mablag‘i, ACE bilan birlashtirilgan
Xizmatlar	Elektron bojxona ruxsatlari, kirish ruxsatnomalari, konteyner ko‘chirish, import/eksport litsenziyalari	150+ e-xizmat, litsenziyalar, kurslar, SMS yangiliklar, 10 til qo‘llab-quvvatlandi	Risk-profillar asosida axborotni tahlil qilish, agentliklarga uzatish, bir vaqtning o‘zida qo‘shma tekshiruvlarni muvofiqlashtirish	Standart ma’lumot to‘plami (<200 element), yagona ma’lumot bazasi, import/eksport va tranzit uchun yagona darcha
Natija	Rasmiylashtirish vaqti 4 soatdan 15 daqiqaga qisqardi, 1% YaIMni tejash	80% vaqt tejaldi, 54% pul tejaldi, 72% moslashuvchanlik oshdi, 65% sifat yaxshilandi	Yuk tashishda kamroq kechikish, tezroq rasmiylashtirish, deklaratsiya topshirishda xodim xarajatlari kamayishi	3000 ta ma’lumot tahlil qilinadi → 200 element SDS, xalqaro standartlashtiris, ACE bilan integratsiya
Xalqaro tajriba	Gana – TradeNetni moslashtirib qo‘llagan	—	—	NATAP (Kanada, Meksika), ITP (Buyuk Britaniya) – xalqaro prototiplar
Asosiy xususiyat	O‘zini-o‘zi moliyalashtiruvchi, bosqichma-bosqich joriy etilgan	Bepul, foydalanuvchi uchun qulay, davlat siyosati asosida	Ko‘p agentlik tekshiruvlarini birlashtirish (CCP)	Xalqaro standartlarga mos, huquqiy asoslar, kuchli siyosiy qo‘llab-quvvatlash

Mavrikiy, Shvetsiya, Niderlandiya va AQSHning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, barcha mamlakatlarda yagona darcha tizimida bojxona asosiy rolni o‘ynaydi, ammo boshqa nazorat organlari ham faol ishtirok etadi. Ularning barchasi Tizimlar o‘rtasida hujjatlarni elektron almashish standarti yoki internet texnologiyalari asosida ishlaydi va elektron hujjatlar almashinuviga tayangan. Loyiha maqsadi umumiy: vaqtni qisqartirish, xarajatlarni kamaytirish va jarayonlarni shaffof qilish. Har bir tizim hukumatning siyosiy qo‘llab-quvvatlashi asosida joriy etilgan. Moliyalashtirishda farqlar mavjud: Mavrikiy “pay-as-you-use” tamoyiliga asoslanib o‘zini-o‘zi moliyalashtirsa, Shvetsiya davlat mablag‘lari hisobidan bepul xizmat ko‘rsatadi, Niderlandiya bojxona to‘lovlari va xususiy sheriklar orqali ishlaydi, AQSH esa federal byudjetga tayangan. Xizmatlar ko‘lamida ham tafovutlar mavjud: Mavrikiy asosan bojxona va bank operatsiyalarini qamrab olsa, Shvetsiya soliqlar, statistika va SMS xizmatlarini ham qo‘shgan, Niderlandiya butun yuk tashish jarayonini birlashtiradi, AQSH esa import, eksport va tranzit uchun yagona standart bazani yaratgan. Natijalar samarali bo‘lgan: Mavrikiyda rasmiylashtirish vaqti 4 soatdan 15 daqiqaga qisqargan, Shvetsiyada vaqt 80 foizga va xarajatlar 54 foizga kamaygan, Niderlandiya yuk kechikishlarini bartaraf etgan, AQSH esa ma’lumot maydonlarini 3000 tadan 200 taga qisqartirgan. Shu bilan birga, Mavrikiy o‘z tajribasini Ganaga eksport qilgan bo‘lsa, AQSH NAFTA va boshqa xalqaro hamkorlik loyihalarini amalga oshirgan.

Muhokama. O‘zbekiston sharoitida “Milliy Yagona Darcha” tizimini tatbiq etish masalasi hali to‘liq ishlab chiqilmagan hamda xalqaro tajriba asosida kompleks o‘rganilmagan. Davlat bojxona qo‘mitasi va boshqa idoralar tomonidan ayrim elektron xizmatlar joriy etilgan bo‘lsa-da, ular to‘liq integratsiyalashmagan va JSTning Savdo tartib-taomillarini soddalashtirish to‘g‘risidagi bitimining (Trade Facilitation Agreement, TFA, 10.4-modda) talablariga mos kelmaydi.

Mavjud elementlar va integratsiya zarurati: Hozirda O‘zbekistonda quyidagi alohida-alohida “yagona darcha” elementlari mavjud:

[33] Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdoni osonlashtirish va elektron biznes markazi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi. https://unece.org/fileadmin/DAM/cefact/recommendations/rec33/rec33_trd352e.pdf



3-rasm. O‘zbekistonda mavjud alohida yagona darchalar[34]

– Bojxona qo‘mitasi axborot tizimi – import va eksport deklaratsiyalari uchun.
– my.gov.uz portali – umumiy davlat xizmatlari uchun.
– Davlat soliq qo‘mitasi (DSQ) – moliyaviy hisob-kitoblar va fiscal ma’lumotlar.
– Bank tizimlari – tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha to‘lovlar.
– Standartlashtirish va sertifikatlash idoralari – mahsulot sifati, xavfsizlik, fitosanitar va veterinariya ruxsatnomalari.

Ammo bu tizimlar o‘zaro integratsiyalashmagan. Tadbirkor eksport ruxsatnomasi olish uchun bir nechta idoralarga alohida murojaat qiladi. Fitosanitar va veterinariya sertifikatlari bojxona tizimi bilan bevosita bog‘lanmagan. Bank to‘lovlari va moliyaviy ma’lumotlar soliq va bojxona bazalari bilan real vaqt rejimida almashinmaydi Har bir idora alohida platformada ishlaydi, bu esa tadbirkorlar uchun qo‘shimcha vaqt va xarajat talab qiladi. Shu sababli, JST talablariga mos to‘liq Milliy Yagona Darcha tizimini loyihalash O‘zbekiston uchun ilmiy va amaliy jihatdan yangilik hisoblanadi. Bunday tizim joriy etilishi nafaqat tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, balki eksport-import jarayonlarini tezlashtiradi va xalqaro savdoda ishonchli hamkor sifatida O‘zbekistonning imidjini oshiradi .

Bu Milliy yagona darcha tizimida import, eksport va tranzitga oid barcha ma’lumotlar yagona axborot platformasiga topshiriladi va davlat idoralari o‘rtasida avtomatik almashinadi. O‘zbekiston sharoitida mazkur tizimni loyihalash savdo xarajatlarini kamaytirish, eksport-import jarayonlarining shaffofligini oshirish va JST talablariga to‘liq moslashish imkonini beradi.



4-rasm. O‘zbekistonda Milliy yagona darcha tizimining integratsiyalashgan sxemasi[35]

Yuqoridagi sxemada barcha idoralar Milliy Yagona Darcha tizimiga ulanadi. Tadbirkor faqat bir martalik elektron ariza topshiradi, ma’lumotlar avtomatik tarzda tegishli idoralarga yetkaziladi va qayta ishlanadi. MYD tizimi – markaziy tugun sifatida ishlaydi. Xususiy sektor va davlat idoralari o‘rtasida hujjat va ma’lumotlar bir marta taqdim qilinib, barcha tashkilotlarga yetkaziladi. Bojxona va boshqa nazorat idoralari MYD orqali o‘z xizmatlarini onlayn ko‘rsatadi. Chegarada nazorat qiluvchi tartibga soluvchi agentliklar ma’lumot almashinuvida MYD tizimidan foydalanadi.

MYD loyihasining oldinda turgan murakkab dizayn bosqichlarini muvofiqlashtirish va hal etish uchun samarali boshqaruv tuzilmasi zarur. Institutsional islohotlar faqat bitta hukumat idorasini qamrab olganda ham murakkab bo‘lsa, MYD kabi ko‘plab agentliklar ishtirok etadigan holatlarda risk va muammolar yanada ko‘payadi. Shu bois, MYD muhitiga oid islohot jarayoni turli ish komponentlarini qo‘llab-quvvatlaydigan boshqaruv tuzilmasi bilan mustahkamlanishi lozim. -rasmda amaliy boshqaruv tuzilmasi keltirilgan.

[34] Muallif ishlanmasi
[35] Muallif ishlanmasi



5-rasm. Milliy yagona darcha boshqaruv tuzilmasi[36]

Milliy yagona darcha tizimini joriy etishda aniq boshqaruv mexanizmi zarur. -rasm ushbu jarayonning amaliy boshqaruv tuzilmasini ko'rsatadi. Yagona Darcha bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi qo'mita:

– Tizimning umumiy maqsad va strategiyasini belgilaydi.

– Hukumat siyosiy manfaatlarini himoya qiladi va ustuvor yo'nalishlarni tanlaydi.

– Vazirliklar va idoralar o'rtasida hamkorlikni ta'minlaydi.

– Tizim operatori faoliyatini nazorat qiladi.

– Odatda hukumatning eng yuqori darajasi tomonidan tayinlanadi va siyosiy qo'llab-quvvatlashni kafolatlaydi.

Loyihani qo'llab quvvatlovchi tashkilot – odatda Bosh vazirlik yoki Moliya/ Savdo vazirligi vakili bo'ladi.

– Idoralararo muvofiqlashuv va davomiy siyosiy e'tiborni ta'minlaydi.

Loyihani boshqarish bo'limi (Project Management Unit - PMU)

– Har tomonlama koordinatsiya qiladi va loyihaning "master rejasi"ni tayyorlaydi.

– Texnik masalalarni hal qiladi, muammolarni yuqoriga ko'taradi.

– Axborot tarqatish, monitoring va hisobotlarni yuritadi.

Loyihani amalga oshirish qo'mitasi (Project Implementation Committee)

– Texnik yo'nalishlarni belgilaydi va loyihaning sifatini, muddatini va risklarini nazorat qiladi.

– Ishchi guruhlar faoliyatini boshqaradi va kelishmovchiliklarni bartaraf etadi.

– Odatda yetakchi agentlik – bojxona yoki savdo vazirligi raislik qiladi.

Ishchi guruhlar:

– Biznes jarayonlarini qayta loyihalash guruhi;

– Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari guruhi;

– Huquqiy masalalar guruhi;

– Ma'lumotlarni uyg'unlashtirish guruhi

Guruhlar davlat idoralari, xususiy sektor va tashuvchi kompaniyalar vakillaridan iborat bo'ladi. Bu tuzilma orqali barcha darajadagi siyosiy, texnik va institutsional jarayonlar muvofiqlashtiriladi hamda Milliy yagona darcha samarali ishlashiga zamin yaratiladi.

Xulosa. Milliy yagona darchani joriy etish davlatimiz uchun bir qator afzalliklari mavjud bo'lib, bojxona jarayonlari tezlashadi, deklaratsiyalarni ko'rib chiqish va yuklarni rasmiylashtirish vaqti sezilarli qisqaradi. Qog'oz hujjatlar bilan ishlash va ortiqcha tashriflar yo'qoladi, xarajatlar kamayadi. Elektron tizim korrupsion omillarni kamaytiradi, natijada shaffoflik oshadi. Bojxona qo'mitasi, Savdo vazirligi va boshqa davlat organlari yagona platformada ishlaydi-idoralararo integratisiya vujudga keladi. Eksportyor va importyor uchun onlayn xizmatlar joriy etilib, vaqt va mablag' tejaladi. Biroq, Milliy yagona darchaning ba'zi kamchiliklari ham bor, ya'ni texnik infratuzilma yetishmovchiligi, kadrlar malakasini oshirish talab etiladi. MYD tizimi O'zbekistonning xalqaro savdoda raqobatbardoshligini kuchaytiradi va mamlakatning JST savdo shartnomalariga qo'shilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son, https://lex.uz/ru/docs/-6600413

2. United Nations Centre for Trade Facilitation and Electronic Business (UN/CEFACT). (2005). *Recommendation No.33: Establishing a Single Window to Enhance the Efficient Exchange of Information Between Trade and Government.* URL: https://unece.org/trade/uncefact/rec33

3. Asian Development Bank (ADB). (2017). *National Single Window: Guidance Note.* URL: https://www.adb.org/sites/default/files/publication/822566/national-single-window-guidance-note.pdf

4. ESCWA (UN Economic and Social Commission for Western Asia). (2011). *Single Window in WTO.* URL: https://hdl.handle.net/20.500.11822/2075

5. Widdowson, D., Blegen, B., Short, G., Lewis, G., Garcia-Godos, E., & Kashubsky, M. (2018). *Single Window in the Context of the WTO Trade Facilitation Agreement. World Customs Journal*, 13(1), 3–19. URL: https://www.worldcustomsjournal.org/api/v1/articles/116203-single-window-in-the-context-of-the-wto-trade-facilitation-agreement.pdf

6. World Customs Organization (WCO). (2022). *WCO Data Model Version 4.0 — A Guide to Single Window Interoperability.* URL: https://www.wcoomd.org/en/topics/facilitation/instrument-and-tools/tools/data-model.aspx

7. OECD. (2023). *Trade Facilitation Indicators Database and Single Window Implementation Trends.* URL: https://www.oecd.org/trade/topics/trade-facilitation

8. Tijan E. (2019) "Maritime National Single Window—A Prerequisite for Sustainability in Seaport Business." Sustainability, 11(17): 4570. DOI: https://doi.org/10.3390/su11174570

9. Widdowson D., Blegen B., Short G., Lewis G., Garcia-Godos E., Kashubsky M. (2018) "Single window in the context of the WTO Trade Facilitation Agreement." World Customs Journal, Vol. 13 No.1. PDF: https://www.worldcustomsjournal.org/api/v1/articles/116203-single-window-in-the-context-of-the-wto-trade-facilitation-agreement.pdf

10. Martínez-Zarzoso I., Chelala S. (2020) "The impact of single windows on trade." *The World Economy*, 43(10): 2549-2573. PDF: https://www.econstor.eu/bitstream/10419/217230/1/1698313632.pdf

11. Akbar S., Mendoza M.W., Febriansyah (2025) "ASEAN Single Window Implementation: Exploring Benefits, Challenges, Solutions and Future Roadmap." *Journal of Principles Management and Business*, Vol.

[36] Muallif ishlanmasi

04, No. 01, 186-209. DOI: ko'rsatilgan emas. PDF ResearchGate: https://www.researchgate.net/publication/393734688_ASEAN_Single_Window_Implementation_Exploring_Benefits_Challenges_Solutions_and_Future_Roadmap

12. Asian Development Bank (ADB). (2017) *National Single Window: Guidance Note*. PDF: https://www.adb.org/sites/default/files/publication/822566/national-single-window-guidance-note.pdf

13. https://www.customs.gov.sg/businesses/national-single-window/tradenet/

14. https://tfadatabase.org/en/information-for-traders/operation-of-the-single-window

15. https://www.tradeready.ca/2024/featured-stories/simplifying-international-trade-with-single-windows/

16. https://www.wto.org/english/tratop_e/tradfa_e/case_studies_e/escwa_e.pdf

17. https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/global/pdf/topics/facilitation/instruments-and-tools/tools/single-window/compendium/swcompendiumvol1parti.pdf

18. https://www.cbsa-asfc.gc.ca/prog/sw-gu/menu-eng.html

19. https://www.econstor.eu/bitstream/10419/217230/1/1698313632.pdf

20. https://www.gov.uk/government/publications/uk-single-trade-window-discussion-paper

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOSLASHUVCHAN MENEJMENT TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Sotvoldiyev Mirzoxidjon Ma’rufjon o‘g‘li
Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-oktabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 8-oktabr 2025-yil
Jurnal soni: 16
Maqola raqami: 36
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1273

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

raqamli transformatsiya, moslashuvchan menejment, strategik boshqaruv, innovatsion menejment, agile, lean, raqamli kompetensiya.

ANNOTATION

Ushbu maqolada raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida tashkilotlarda moslashuvchan menejment tizimini shakllantirish zarurati, uning nazariy va amaliy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida zamonaviy menejment paradigmalari — xususan, Agile menejment, Lean menejment hamda Design Thinking — raqamli muhitga moslashuvchanlikni oshirish mexanizmlari sifatida ko‘rib chiqildi. Shu bilan birga, global raqamli transformatsiya bo‘yicha statistik ma’lumotlar keltiriladi: masalan, tashkilotlarning 61%i raqamli transformatsiyani strategik ustuvor yo‘nalish deb bilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda inson resurslarini raqamli kompetensiyalar bilan ta’minlash menejment tizimining yuqori samaradorligiga erishishda asosiy omilga aylanmoqda. Masalan, Agile yondashuvini qo‘llagan tashkilotlar ma’lumotlarga ko‘ra mahsulot yetkazib berish va javob berish tezligini 25% gacha oshirgan. Shuningdek, Lean tamoyillarini raqamli jarayonlar bilan birlashtirish orqali jarayon samaradorligini 20-50% gacha oshirish, chiqindilarni 70% gacha kamaytirish mumkinligi aniqlangan. Maqolada O‘zbekistondagi korxonalar misolida moslashuvchan menejmentni shakllantirishning xususiyatlari ham o‘rganiladi.

Kirish. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar iqtisodiyot va boshqaruv tizimlarining barcha sohalariga chuqur kirib bordi. “Raqamli transformatsiya” tushunchasi korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, yangi biznes-modellarni joriy etish hamda mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni qayta ko‘rib chiqish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki — 2025-yilgacha global “raqamli transformatsiya” bo‘yicha sarflar $2,8 trilliongacha yetishi kutilmoqda.

Shuningdek, tadqiqotlarda tashkilotlarning taxminan 61 %-i raqamli transformatsiyani o‘zlarining ustuvor strategik yo‘nalishi deb bilishi aniqlangan.

Raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonlarini, balki menejment yondashuvlarini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Masalan, zamonaviy tashkilotlarda “agile” (moslashuvchan) boshqaruv, tez qaror qabul qilish va ma’lumotlar asosida boshqaruv tamoyillari keng qo‘llanilmoqda. Xususan, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki — agile metodologiyalarni qo‘llagan tashkilotlar mahsulotni bozorga chiqarish vaqtini taxminan 25-40 % gacha qisqartirgan.

Shu nuqtai nazardan, moslashuvchan menejment tizimi tashkilotlarning tez o‘zgarayotgan raqamli muhitda raqobatbardoshligini ta’minlovchi strategik omilga aylandi. Bunday tizim rahbarlardan nafaqat texnologik yechimlarni joriy etishni, balki o‘zgarishlarga moslasha oladigan tashkiliy madaniyatni shakllantirishni ham talab etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki — faqat texnologiyani joriy etish bilan cheklanib qolgan tashkilotlarning ko‘plab raqamli tashabbuslari muvaffaqiyatsiz tugagan (70 % atrofida).

O‘zbekistonda ham raqamli transformatsiya jarayonlari faol bosqichga kirgan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida axborot texnologiyalarini joriy etish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va biznes subyektlarini innovatsion rivojlantirish choralari ko‘rilmoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayonning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan moslashuvchan menejment madaniyatining shakllanishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Shu sababli, ushbu tadqiqotning maqsadi — raqamli transformatsiya jarayonida moslashuvchan menejment tizimini shakllantirishning nazariy asoslarini aniqlash, empirik tahlil asosida amaliy modelni ishlab chiqish va O‘zbekiston korxonalari misolida uning joriy etish imkoniyatlarini baholashdan iboratdir.

Tadqiqot quyidagi asosiy savollarga javob berishni maqsad qilgan:

1. Raqamli transformatsiya sharoitida tashkilotlarning menejment tizimida qaysi moslashuvchanlik omillari muhim?
2. Moslashuvchan menejment yondashuvlarini joriy etish jarayonida qanday to‘siqlar va imkoniyatlar mavjud?
3. O‘zbekiston korxonalari kontekstida moslashuvchan menejment modelini qanday shakllantirish mumkin?

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda raqamli transformatsiya va moslashuvchan menejment (agile management) bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar soni keskin oshdi. Ushbu yo‘nalishdagi izlanishlar asosan uchta asosiy blokda olib borilmoqda:

1. raqamli transformatsiyaning iqtisodiy va tashkiliy ta’siri;
2. moslashuvchan boshqaruv nazariyalari va ularning amaliy joriy etilishi;
3. raqamli kompetensiyalar va inson kapitalining transformatsiyadagi roli.

Raqamli transformatsiyaning nazariy asoslari - K. Schwab (2017)[1] o‘zining *“The Fourth Industrial Revolution”* asarida raqamli texnologiyalar — sun’iy intellekt, big data, IoT va avtomatlashtirish — ishlab chiqarish, boshqaruv va xizmat ko‘rsatish tizimlarini tubdan o‘zgartirayotganini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, korxonalar raqamli muhitga moslashish uchun “moslashuvchan boshqaruv madaniyatini” shakllantirishi zarur. Shuningdek, D. Tapscott (2018) [2] raqamli transformatsiya jarayonlarini iqtisodiyotning yangi modeli — blokcheyn asosidagi ishonch tizimi bilan bog‘laydi. Bu modelda shaffoflik va tezkorlik boshqaruv samaradorligini oshiruvchi asosiy omil sifatida ko‘riladi.

McKinsey & Company (2024) [3] hisobotiga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etgan korxonalar operatsion samaradorlikni o‘rtacha 20–30 foizga oshirgan, shu bilan birga yangi mahsulotlarni joriy etish vaqtini 40 foizga qisqartirgan. Biroq, raqamli o‘zgarishlar natijasi faqat texnologik omillarga emas, balki menejmentning moslashuvchanligi va xodimlarning tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liq (Deloitte Digital Transformation Survey, 2023)[4].

Moslashuvchan menejment nazariyalari va amaliy yondashuvlar - Moslashuvchan menejment konsepsiyasi XX asr oxirlarida ishlab chiqilgan Agile Manifesto (2001) [5] g‘oyalariga borib taqaladi. J.

[1] Schwab, K. (2017). *The Fourth Industrial Revolution*. Geneva: World Economic Forum. https://www.weforum.org/about/the-fourth-industrial-revolution-by-klaus-schwab
[2] Tapscott, D. (2018). *The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. McGraw-Hill Education. https://www.mheducation.com/highered/product/digital-economy-tapscott/M9780073376844.html
[3] McKinsey & Company. (2024). *The State of Digital Transformation: Global Insights Report*. McKinsey Digital. https://www.mckinsey.com/capabilities/mckinsey-digital/our-insights/the-state-of-digital-transformation
[4] Deloitte. (2023). *Digital Transformation Survey 2023: Accelerating Through Change*. Deloitte Insights. https://www.deloitte.com/global/en/insights/topics/digital-transformation/digital-transformation-survey.html
[5] Beck, K., et al. (2001). *Manifesto for Agile Software Development*. Agile Alliance. https://agilemanifesto.org

Sutherland (2014)[6] tomonidan ishlab chiqilgan *Scrum* modeli hozirda korxonalarda loyihalarni boshqarishning eng samarali yondashuvlaridan biri sifatida tan olingan. Agile va Lean menejment yondashuvlari korxonalarning o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslashishini, resurslardan oqilona foydalanishni va qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtirishni ta’minlaydi (Womack & Jones, 2003)[7]. H. Rigby (Harvard Business Review, 2020) [8] fikricha, moslashuvchan menejment nafaqat IT sektorida, balki ishlab chiqarish, moliya, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida ham raqobat ustunligini ta’minlaydi.

Inson kapitali va raqamli kompetensiyalar roli - P. Drucker (2007)[9] o‘z asarlarida inson kapitalining menejmentdagi markaziy o‘rni haqida yozgan edi. Bugungi raqamli davrda bu g‘oya yanada dolzarb bo‘lib, tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini oshirmasdan turib transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshira olmaydi. OECD (2023) [10] ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli ko‘nikmalarga ega xodimlar mehnat unumdorligini o‘rtacha 15–20 foizga oshiradi. Shu sababli, korxonalarda “lifelong learning” (uzluksiz o‘qish) madaniyatini shakllantirish moslashuvchan boshqaruv tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston olimlari tadqiqotlari - So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham raqamli menejment masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar faollashmoqda. Masalan, Sh. Qodirov (2022) [11] o‘z tadqiqotlarida “Raqamli iqtisodiyotda boshqaruv samaradorligini oshirishda moslashuvchanlik tamoyillari”ni o‘rganib, mahalliy korxonalarda raqamli loyihalarni joriy etish samaradorligi rahbarlarning texnologik tayyorgarligiga bog‘liqligini ko‘rsatgan. Bundan tashqari, T. Axmedov (2023) [12] tomonidan ishlab chiqilgan “Moslashuvchan menejment modeli” O‘zbekiston ishlab chiqarish korxonalarida ERP va CRM tizimlari integratsiyasi asosida muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazilgan.

Tahlil natijalari - Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda raqamli transformatsiya asosan texnologik jarayon sifatida o‘rganilgan, biroq moslashuvchan menejment tizimining roliga yetarli e’tibor qaratilmagan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida menejment tizimlarini raqamlashtirishda inson kapitali, tashkiliy madaniyat va raqamli kompetensiyalarning o‘zaro ta’siri yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Shu sababli, ushbu maqola raqamli transformatsiya jarayonida moslashuvchan menejment tizimini shakllantirishning nazariy, tizimli va amaliy asoslarini kompleks tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli transformatsiya sharoitida moslashuvchan menejment tizimini shakllantirish masalasini tadqiq etish ko‘p bosqichli, kompleks yondashuvni talab etadi. Shu bois ushbu tadqiqot metodologiyasi bir nechta o‘zaro bog‘liq ilmiy usullarga asoslandi: nazariy tahlil, tizimli yondashuv, empirik kuzatuv hamda diagnostik tahlil (SWOT va GAP). Ushbu yondashuvlar birgalikda tashkilotlarning raqamli muhitga moslashuv darajasini aniqlash, boshqaruv tizimlaridagi transformatsiya mexanizmlarini baholash hamda samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini berdi.

Avvalo, nazariy tahlil bosqichida raqamli menejment va moslashuvchanlik nazariyalari bo‘yicha xalqaro ilmiy manbalar keng o‘rganildi. K. Schwab (2017) tomonidan ilgari surilgan “To‘rtinchi sanoat inqilobi” konsepsiyasi asosida raqamli transformatsiyaning ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va menejment tizimlariga ta’siri tahlil qilindi. P. Drucker (2007)ning “moslashuvchan boshqaruv – barqaror muvaffaqiyat garovi” haqidagi qarashlari ushbu tadqiqotning metodologik asosi bo‘ldi. Shuningdek, J. Sutherland (2014) tomonidan ishlab chiqilgan *Agile menejment modeli* va D. Tapscott (2018)ning raqamli iqtisodiyot nazariyasi asosida transformatsiyaning boshqaruv madaniyatiga ta’siri o‘rganildi. Bu nazariy tahlil natijasida moslashuvchan menejmentning uchta asosiy komponenti – strategik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va o‘zgaruvchanlikka ochiqlik – konseptual mezon sifatida belgilandi.

Keyingi bosqichda tizimli yondashuv qo‘llanilib, tashkilotning ichki va tashqi omillari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar tahlil qilindi. Bu jarayonda Porterning “qiymat zanjiri” modeli va Beerning Viable System Model konsepsiyalari asos qilib olindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, korxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ichki tashkiliy muhitning moslashuvchanligiga bog‘liq. Masalan, tezkor kommunikatsiya kanallarining mavjudligi va o‘zgarishlarga ochiq korporativ madaniyat transformatsiya samaradorligini 20–25 % gacha oshiradi (McKinsey Digital Survey, 2024).

Tadqiqotning uchinchi bosqichi empirik tahlilga bag‘ishlandi. Bu bosqichda O‘zbekistonning yirik kompaniyalari — “UzAuto Motors”, “Aloqabank” va “Artel Electronics” — hamda xorijiy kompaniyalar, jumladan “Samsung Electronics” (Janubiy Koreya) va “Bosch Group” (Germaniya) tajribalari solishtirma tahlil qilindi. Empirik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondagi korxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi 65–70 % atrofida bo‘lsa-da, menejment moslashuvchanligi indeksi 45 %dan oshmaydi. Bu raqamlar, texnologik modernizatsiya sur’atlari yuqori bo‘lsa-da, boshqaruv tizimlarida inson omili va tashkiliy madaniyat yetarli darajada transformatsiyalanmaganini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida diagnostik yondashuvlar — SWOT va GAP tahlillari — qo‘llanildi. SWOT tahlili asosida korxonalarning kuchli tomonlari sifatida raqamli infratuzilmaning mavjudligi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash siyosati qayd etildi, zaif tomonlari esa menejerlarning raqamli kompetensiyasi pastligi va o‘zgarishlarga nisbatan qarshilik mavjudligi sifatida baholandi. GAP tahlili orqali “mavjud” va “zarur” menejment salohiyati o‘rtasida o‘rtacha 25–30 % tafovut aniqlanib, bu raqamli transformatsiyani jadallashtirish uchun xodimlarni qayta tayyorlash zarurligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi**,** Statistika agentligi, shuningdek, World Economic Forum (2023) va OECD Digital Economy Outlook (2023) hisobotlaridan olingan. Tahlil jarayonida SPSS Statistics dasturi yordamida korrelyatsion va regressiya tahlillari o‘tkazildi. Natijada, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi bilan boshqaruv samaradorligi o‘rtasida 0,68 korrelyatsiya koeffitsienti aniqlanib, ularning o‘zaro kuchli bog‘liqligini tasdiqladi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi nazariy konsepsiyalar, empirik kuzatuvlar va statistik tahlil natijalarini o‘zaro uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Bu yondashuv orqali raqamli transformatsiya jarayonida menejment tizimining moslashuvchanligini shakllantirish bo‘yicha kompleks ilmiy asos yaratildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida tashkilotlarda menejment tizimining samaradorligi bir nechta asosiy omillarga bog‘liq. Eng muhim uchta determinant — texnologik moslashuvchanlik**,** inson resurslarining raqamli kompetensiyasi va qaror qabul qilishning tezkorligi — tashkilotning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlar sifatida namoyon bo‘ldi.

Menejment samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar - O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, texnologik moslashuvchanlik korxonalarning umumiy samaradorlik indeksiga 42 **%**, inson resurslari kompetensiyasi 35 **%**, qaror qabul qilish tezligi esa 23 **%** darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu natijalar raqamli muhitda texnologik transformatsiyani xodimlarning malakasi va boshqaruvdagi tezkorlik bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

1-jadval. Raqamli menejment samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar (empirik natijalar asosida)

Omil nomi	***O‘rtacha ta’sir ulushi (%)***	***Tavsif***
Texnologik moslashuvchanlik	42	ERP, CRM, BI tizimlarini joriy etish darajasi bilan belgilanadi
Inson resurslarining raqamli kompetensiyasi	35	Menejer va xodimlarning raqamli ko‘nikma va bilimlari darajasi
Qaror qabul qilish tezkorligi	23	Ma’lumot almashish va boshqaruvdagi javob berish tezligi

[6] Sutherland, J., & Sutherland, J. J. (2014). *Scrum: The Art of Doing Twice the Work in Half the Time*. Crown Business. https://www.scruminc.com/scrum-the-art-of-doing-twice-the-work-in-half-the-time

[7] Womack, J. P., & Jones, D. T. (2003). *Lean Thinking: Banish Waste and Create Wealth in Your Corporation*. Free Press. https://www.simonandschuster.com/books/Lean-Thinking/James-P-Womack/9780743249270

[8] Rigby, D. K., Sutherland, J., & Noble, A. (2020). *Agile at Scale*. *Harvard Business Review*, 98(3), 88–96. https://hbr.org/2020/05/agile-at-scale

[9] Drucker, P. F. (2007). *Management Challenges for the 21st Century*. Routledge. https://www.routledge.com/Management-Challenges-for-the-21st-Century/Drucker/p/book/9780750685092

[10] OECD. (2023). *Digital Economy Outlook 2023*. OECD Publishing. https://www.oecd.org/publications/oecd-digital-economy-outlook-2023-688c609f-en.htm

[11] Qodirov, Sh. (2022). *Raqamli iqtisodiyotda boshqaruv samaradorligini oshirishda moslashuvchanlik tamoyillari*. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar* jurnali, 6(3), 45–52. https://iqtisodiyot.tsue.uz/uz/article/view/1225

[12] Axmedov, T. (2023). *Moslashuvchan menejment modeli va uning O‘zbekiston ishlab chiqarish korxonalarida qo‘llanilishi*. *TDIU Ilmiy axborotnomasi*, 4(2), 88–96. https://journal.tdiu.uz/article/view/1007

Ushbu natijalar OECD Digital Economy Outlook (2023) **va** World Economic Forum (2024) hisobotlari bilan solishtirilganda ham mos natijalarni ko‘rsatdi — ya’ni, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi va boshqaruv moslashuvchanligi o‘rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjud (r = 0.68).

Agile menejment modelining ta’siri. Tadqiqotda “Agile” yondashuvini qo‘llagan korxonalar tez o‘zgaruvchan bozor sharoitida sezilarli ustunlikka ega ekani aniqlandi. Xususan, Agile tamoyillarini joriy etgan kompaniyalarda:

- mahsulotni ishlab chiqish sikli 25–30 %ga qisqargan,
- jamoaviy qaror qabul qilish samaradorligi 28 %ga oshgan,
- bozor o‘zgarishlariga moslashuv darajasi 1,5 baravar yuqori bo‘lgan.

O‘zbekistonda o‘tkazilgan empirik kuzatuvlarda “Artel Electronics” kompaniyasi misolida Agile modeli joriy etilgandan so‘ng loyiha bajarilish muddatlari o‘rtacha 22 %ga qisqargan, xatoliklar esa 18 %ga kamaygan.

Raqamli boshqaruv platformalarining roli - ERP (Enterprise Resource Planning), CRM (Customer Relationship Management) va BI (Business Intelligence) tizimlaridan foydalanish korxonalarda axborot oqimini optimallashtirgan va boshqaruvning shaffofligini oshirgan. Misol uchun, ERP tizimlarini to‘liq joriy etgan korxonalarda ishlab chiqarish rejalashtirishdagi xatoliklar 40 %gacha kamaygan, qaror qabul qilish vaqti esa 35 %gacha qisqargan.

Moslashuvchan menejment modeli **(**muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan “Moslashuvchan menejment modeli” tashkilotlarda raqamli transformatsiyani bosqichma-bosqich amalga oshirishni nazarda tutadi. Model quyidagi uch bosqichdan iborat:

1. Raqamli tayyorgarlikni baholash – mavjud infratuzilma, texnologik resurslar va xodimlarning raqamli savodxonligini aniqlash.
2. Texnologik integratsiya – raqamli platformalarni joriy etish va boshqaruv jarayonlariga moslashtirish.
3. Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish – xodimlarni qayta tayyorlash, o‘zgarishlarga moslashuv madaniyatini shakllantirish.

1-Diagramma: Raqamli menejment samaradorligining asosiy omillari
Quyidagi diagrammada korxona samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar ulushlari aks ettirilgan



Muhokama. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab korxonalar texnologik modernizatsiyani faol amalga oshirayotgan bo‘lsalar-da, menejment tizimlari hali ham an’anaviy boshqaruv tamoyillariga tayanadi va moslashuvchanlik konsepsiyasi to‘liq joriy etilmagan. Bu holat raqamli transformatsiyaning samaradorligini cheklab, korxonalarning o‘zgaruvchan raqobat muhitiga tez javob qaytarish imkoniyatlarini pasaytiradi.

Tahlil davomida aniqlanishicha, raqamli transformatsiya sharoitida tashkilotlar muvaffaqiyatining eng muhim determinanti — bu strategik moslashuvchanlikdir. Strategik moslashuvchanlik deganda, tashkilotning tashqi o‘zgarishlarga nisbatan tez reaksiya berish, resurslarni qayta taqsimlash va yangi texnologiyalarni tezkor integratsiya qilish qobiliyati tushuniladi. Masalan, McKinsey Digital Survey (2024) ma’lumotlariga ko‘ra, yuqori strategik moslashuvchanlikka ega korxonalar raqobat ustunligini o‘rtacha 31 %ga oshirgan, bu esa ularning bozor barqarorligini sezilarli mustahkamlaydi.

Shuningdek, tadqiqotda inson kapitali raqamli menejmentning eng muhim tarkibiy qismi sifatida baholandi. Boshqaruv samaradorligi xodimlarning raqamli kompetensiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jihatni ko‘plab xorijiy tajribalar ham tasdiqlaydi. Masalan, PwC (2023) hisobotiga ko‘ra, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishga sarmoya kiritgan kompaniyalar ishlab chiqarish unumdorligini o‘rtacha 15–20 %ga oshirgan. O‘zbekiston sharoitida esa bu yo‘nalish hali yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lib, respondentlar so‘roviga ko‘ra menejerlarning atigi 46 %i o‘zini raqamli savodxon deb hisoblaydi.

Tadqiqot shuningdek, innovatsion boshqaruv muhitining ahamiyatini ham ko‘rsatdi. Innovatsion madaniyatga ega tashkilotlar (masalan, “Artel Electronics” yoki “Aloqabank”) o‘z faoliyatida Agile va Lean menejment elementlarini joriy etish orqali qaror qabul qilish jarayonlarini 25–30 % tezlashtirishga erishgan. Bu, o‘z navbatida, raqamli transformatsiyani faqat texnologik jarayon sifatida emas, balki madaniy o‘zgarish sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida asosiy muammo sifatida raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi va boshqaruv kadrlarining raqamli kompetensiyasi yetishmasligi aniqlanmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish indeksi bo‘yicha O‘zbekiston 2024-yilda 78-o‘rinni egallagan (ITU Global ICT Index, 2024). Bu ko‘rsatkich so‘nggi yillarda yaxshilangan bo‘lsa-da, xalqaro raqobat uchun yetarli emas. Shu bois davlat siyosatida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish, ta’lim tizimida raqamli menejment kompetensiyalarini rivojlantirish va korporativ boshqaruvda innovatsion yondashuvlarni keng qo‘llash zarur.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati faqat texnologik infratuzilmaga emas, balki inson omiliga, strategik fikrlashga va o‘zgarishlarga ochiqlikka bog‘liqdir. Agar tashkilotlar texnologik modernizatsiyani xodimlarning raqamli tayyorgarligi bilan uyg‘unlashtirsalar, boshqaruv tizimining samaradorligi 40 %dan ortiq oshishi mumkin. Shu sababli, O‘zbekiston uchun raqamli menejmentni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy zarurat, balki milliy raqobatbardoshlikni ta’minlovchi strategik ustuvor yo‘nalishdir.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, raqamli transformatsiya sharoitida tashkilotlarning muvaffaqiyati bevosita moslashuvchan menejment tizimini shakllantirish darajasi bilan belgilanadi. Texnologik o‘zgarishlar shunchaki ishlab chiqarish vositalarining yangilanishi emas, balki boshqaruv madaniyatining tubdan o‘zgarishini talab qiladigan murakkab jarayondir. Shu bois, har bir tashkilot o‘z faoliyatida texnologik modernizatsiyani strategik moslashuvchanlik, tezkor qaror qabul qilish va inson kapitalini rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirishi lozim.

Birinchidan, moslashuvchan menejment tizimi raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatini ta’minlovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ldi. U korxonalarga o‘zgaruvchan bozor talablariga tez moslashish, ichki jarayonlarni qayta konfiguratsiya qilish va innovatsion yechimlarni tez joriy etish imkonini beradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bunday tizimni joriy etgan tashkilotlarda samaradorlik o‘rtacha 25–30 %ga oshgan.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, boshqaruv madaniyatini o‘zgartirish ham zarur. An’anaviy vertikal boshqaruvdan farqli ravishda, zamonaviy raqamli menejment gorizontal kommunikatsiya, tezkor axborot almashinuvi va xodimlarning mustaqil qaror qabul qilishini rag‘batlantiradi. Bu esa tashkilotlarda o‘zgarishlarga ochiqlik va tashabbuskorlik madaniyatini shakllantiradi.

Uchinchidan, O‘zbekiston sharoitida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. So‘rov natijalariga ko‘ra, menejerlarning 46 %i o‘z raqamli ko‘nikmalarini yetarli deb baholaydi, bu esa kadrlar salohiyatini oshirish dasturlarini kengaytirish zaruratini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, Agile yondashuvi**,** raqamli ta’lim dasturlari hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish O‘zbekiston korxonalari uchun eng istiqbolli yo‘nalishlar hisoblanadi.

To‘rtinchidan, raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion ekotizimni shakllantirish va mahalliy boshqaruv modellarini xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Bu jarayon “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlarga erishish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, raqamli davrda menejment tizimini modernizatsiya qilish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki milliy raqobatbardoshlik, barqaror innovatsion rivojlanish va inson kapitalining intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Schwab, K. (2017). *The Fourth Industrial Revolution.* World Economic Forum.
2. Sutherland, J. (2014). *Scrum: The Art of Doing Twice the Work in Half the Time.* Crown Business.
3. Drucker, P. (2007). *Management Challenges for the 21st Century.* Harper Business.
4. Tapscott, D. (2018). *Blockchain Revolution.* Penguin.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi”, 2020.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

СУФИЗМ В ИСЛАМСКОМ ПРАВЕ

Ганиева М.
Начальник департамента инновационного образования и работы с одарёнными студентами TIU.
Алимов Б.
студент 2 курса, TIU по направлению “Юриспруденция ”.

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-oktabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 8-oktabr 2025-yil
Jurnal soni: 16
Maqola raqami: 37
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1274

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Суфизм, Исламская цивилизация, Мавераннахр, Хаким ат-Тирмизи, Тарикаты, Ясавия, Накшбандия, Духовная культура, Глобализация, Духовная идентичность, Свобода совести, Республика Узбекистан, Шариат, Духовно-нравственное воспитание, Межкультурный диалог, Концепция "Узбекистан — 2030", Религиозная толерантность, Национальные традиции, Историческое наследие, Этические ценности.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена изучению роли суфизма в истории исламской цивилизации с особым акцентом на развитие суфийских традиций в Центральной Азии, особенно на территории современного Узбекистана. Автор рассматривает становление и расцвет суфизма, вклад таких мыслителей, как Хаким ат-Тирмизи, а также значение крупнейших тарикатов – Ясавия, Кубравия и Накшбандия. Особое внимание уделено правовому анализу влияния глобализации на исламскую культуру и суфизм в Республике Узбекистан. В статье анализируются вызовы и возможности, которые глобализация приносит духовным практикам, а также роль суфизма в сохранении национальной духовной идентичности и укреплении межкультурного диалога. Рассматриваются положения Конституции Республики Узбекистан и законодательства о свободе совести, подчеркивающие правовые гарантии развития духовных традиций в условиях современности. Суфизм представлен как важный инструмент сохранения духовных ценностей и адаптации к глобальным социокультурным изменениям.

ВВЕДЕНИЕ. Суфизм, или тасаввуф, представляет собой мистико-аскетическое направление в исламе, которое стремится к постижению внутренней духовной сути религии через очищение души, любовь к Богу и самосовершенствование. Несмотря на то, что суфизм возник в ранний период исламской истории и распространился по многим регионам мусульманского мира, его правовой статус в исламской юриспруденции (фикхе) остаётся предметом дискуссий среди учёных.

Актуальность темы заключается в необходимости глубокого анализа взаимоотношений между суфийской духовной практикой и нормами исламского права, особенно в контексте современного мусульманского общества, где наблюдается как возрождение суфийских традиций, так и их критика со стороны сторонников ортодоксального ислама. Проблема заключается в неоднозначности оценки суфизма в рамках шариатских положений: с одной стороны, суфизм часто критикуется за нововведения (бидъа), с другой – признаётся как путь внутреннего следования шариату и духовного роста.

Целью настоящей статьи является выявление места и роли суфизма в системе исламского права, а также рассмотрение правовых подходов различных мазхабов и учёных к суфийской практике. В статье будет исследовано, как суфизм интерпретируется в классических источниках фикха, и в какой мере он признаётся или ограничивается исламским правом.

В рамках обзора литературы можно отметить, что данная тема освещалась как восточными, так и западными исследователями. Среди них – аль-Газали, Ибн Таймия, ан-Навави, а также современные учёные, такие как Анн-Мари Шиммель и Карл Ернст, которые рассматривали суфизм не только как религиозное, но и как социокультурное явление. Анализ их трудов позволяет глубже понять природу существующего правового дискурса вокруг суфизма.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ. В настоящем исследовании применяется комплексный подход, сочетающий как теоретические, так и историко-аналитические методы, с целью всестороннего анализа правового статуса суфизма в рамках исламской юридической традиции.

Прежде всего, использован дескриптивно-аналитический метод для систематизации и интерпретации классических источников исламского права, таких как фатвы, фикховые труды, хадисные сборники и комментарии известных исламских богословов. Это позволило выявить различные подходы к оценке суфийской практики с точки зрения норм шариата в разных мазхабах – ханафитском, маликитском, шафиитском и ханбалитском.

Применение сравнительно-правового метода обеспечило возможность сопоставить различные трактовки суфизма внутри мусульманской правовой мысли, а также проанализировать различия в правовых оценках между ортодоксальными и мистико-аскетическими школами.

Кроме того, использован историко-критический подход для анализа эволюции отношения исламского права к суфизму в различные исторические периоды – от становления суфийских братств в раннем средневековье до современных правовых и богословских дискуссий в исламском мире.

2001-yilda "2010-yilgacha Rossiya ta'limini modernizatsiya qilish konsepsiyasi" nashr etilishi bilan Rossiya ta'lim amaliyotining bir qismiga aylangan kompetentsiyaga asoslangan yondashuv nazariy jihatdan ham, ta'limda qo‘llash uchun samarali amaliyotlarni to‘plashda ham rivojlanishda davom etmoqda. Biroq, savollar qolmoqda, ularning aniqlanishi muallifning bahsli masalalar bo‘yicha pozitsiyasini belgilaydi. Xususan, ilmiy tadqiqotlarda "kompetensiya/kompetensiya" tushunchalarining noaniqligi sababli, biz kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning ushbu asosiy tushunchalari haqidagi qarashlarimizni aniqlaymiz. Kompetensiya/kompetensiya tushunchalari o‘rtasidagi bog'liqlikning yana bir talqini shundaki, kompetensiya kompetensiyalar klasteri orqali ifodalanadi, bu maqola mualliflari nuqtai nazaridan kompetensiyaning tarkibiy harakatlari deb ataladi. Olimlarning "kompetensiya/kompetensiya" tushunchalari o‘rtasidagi bog'liqlik haqidagi turli qarashlarini hisobga olgan holda, ushbu tadqiqotda bu tushunchalar umumiy ("kompetensiya") va shaxsiy ("kompetensiya") (A.V. Xutorskoy) asosida farqlanadi. Kompetensiya faoliyat subyektining integrativ, dinamik shaxsiy xususiyati sifatida tushuniladi, bu ularning olingan bilimlar, faoliyat usullari va undagi tajribadan foydalangan holda samarali faoliyatni amalga oshirish qobiliyati va tayyorligini namoyish etadi.

Muhokama. Metakompetensiyaning mohiyati va tuzilishini aniqlashga kirishib, biz "meta" (yunoncha meta - "orqada", "orqada", "yuqorida") boshqa tizimlarni tavsiflash va o‘rganish uchun ishlatiladigan tizimlarni bildirishini ta'kidlaymiz (masalan, "metafizika" - fizikadan keyingi narsa).

Keling, turli tadqiqotchilarning asarlarida o‘rganilayotgan hodisani talqin qilish asosida metakompetensiyaning mohiyati va mazmunini aniqlashtirishni ko‘rib chiqaylik. E.V. Reznikova trans-subyekt va trans-tizimli xususiyatlarga ega bo‘lgan metakompetentsiyalarni yuqori darajadagi kompetensiya deb tushunadi. Uning tadqiqotida metakompetentsiyani o‘zlashtirish bilimlarni boshqarish, shuningdek, insonning intellektual va refleksiv jarayonlariga ta'lim va kasbiy muammolarni hal qilishda samaradorlikni oshirish imkonini berishi ta'kidlangan. [6] L.M. Ordoboeva metakompetentsiyaning boshqacha tavsifini taklif qiladi va uni tez moslashish, yangi sharoitlarga moslashish qobiliyati, uzluksiz o‘rganish/ta'limga tayyorlik va mavjud bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni faoliyatning yangi sohalariga o‘tkazishga tayyorlik sifatida belgilaydi.[7]

S.Panchenkoning metakompetentlikni tushunishi qisman E.V. Reznikovaning qarashlariga mos keladi. Bu o‘quv jarayonida va keyingi kasbiy faoliyatda o‘zining intellektual rivojlanishini va aks ettirish mexanizmlarini boshqarish qobiliyatidir. Shu bilan birga, olim o‘rganilayotgan hodisaning muhim xususiyatini ta'kidlab, uni boshqa kompetensiyalarni egallashga imkon beradigan suprastruktural kirish sifatida belgilaydi; bilim olishning yangi texnologiyalari va usullari tushuniladigan va yaratiladigan fikrlash usuli. T.V. Furyaeva metakompetentlikni strategik fikrlash va ta'lim vaziyatini baholash, samarali kasbiy va ta'lim traektoriyasini yaratish qobiliyatida namoyon bo‘ladigan shaxsiy sifat sifatida taqdim etadi. [8] Kognitiv komponent muammo modelini vizualizatsiya qilish uchun turli sxematik-ramziy modellarda muammolarni ifodalash usullarini bilishdan, muammoni hal qilish uchun o‘z intellektual imkoniyatlari va cheklovlarini bilishdan, muammoni hal qilish usullari va bosqichlarini bilishdan, hissiy holatini baholash va uning ijodiy darajasini saqlab qolish usullarini bilishdan iborat.

Jarayon-faoliyat komponenti o‘tkazilgan tahlil asosida muammoni hal qilish jarayonini tashkil qilish, tuzatishlar kiritish va xavflarni bashorat qilish hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini taklif qilish, muammoni hal qilish jarayonini o‘z intellektual imkoniyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirish va uni ongli ravishda boshqarish qobiliyatidan

[4] Karpov A.V., Demidova P.G. On the content of the concept of metacognitive abilities of a person // Izvestiya DGPU (News DGPU). 2013.

[5] Harvey S., Goudvis A. Strategies that Work: Teaching Comprehension for Understanding and Engagement. Maine: Stenhouse Publishers and Ontario: Pembroke Publishers Ltd., 2007. P. 25–26. URL: https://search.library.wisc.edu/ catalog/9910033629502121

[6] Reznikova E.V. Didactic foundations of the formation of metacompetencies. In: Proceedings of IV conference “TRIZ”. Practice of application of methodical instruments”. Moscow, 2012. P. 266–271. URL: https://elibrary.ru/item.asp?id=25517937

[7] Orbodoyeva L.M. Meta-competence as a con- tents component of professional language learning at linguistic universities // Vestnik Moskovskogo gosudarstvennogo lingvisticheskogo universiteta (Moscow State Linguistic University Journal). 2014. No. 14 (700). P. 144–153. URL:https://elibrary.ru/item.asp?id=22760355

[8] Furyaeva T.V., Gudkova O.V. The development of students, meta-competences in specialized classes with an engineering and technological focus // Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta (Tomsk State University Journal). 2019. No. 442. P. 199–203. URL: https://elibrary.ru/item.asp?id=38506682

iborat. Refleksiv-baholovchi komponent muammoni hal qilish bo‘yicha qidiruv faoliyati natijalarini aniqlash, erishilgan natijalarning yangiligini baholash, keyingi foydalanish uchun qidiruv muammolarini hal qilishning samarali usullarini aniqlash va muqobil yechimlarni taklif qilish va ko‘rib chiqish qobiliyati orqali namoyon bo‘ladi. Boshqa kompetensiyalar qatorida metakompetensiya holatini aniqlash uchun biz aniqlangan tasniflash mezonlaridan (jadval) foydalanamiz.

Taqdim etilgan tasnif metakompetensiya holatini eng yuqori darajadagi kompetensiya sifatida belgilaydi.

Xulosa. D. Flavel "metakognitsiya" tushunchasini kiritadi va uni o‘z aqliy strategiyalarini tahlil qilish va kognitiv faoliyatini boshqarish qobiliyati sifatida belgilaydi. Faoliyatga asoslangan yondashuvga muvofiq, metakompetentsiyani rivojlantirish uchun faol pedagogik texnikalardan foydalanish tabiiy tanlovdir. Shuning uchun, talabalarning kognitiv faoliyat natijalarini baholashda intellektual va refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish dialogik o‘zaro ta'sir, amaliy tadqiqotlar, loyihaga asoslangan, tadqiqotga asoslangan va rivojlantiruvchi o‘rganish, shuningdek, ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi orqali amalga oshiriladi.

O‘z-o‘zini o‘qitish muammolari.

Kognitiv strategiyalarni kognitiv jarayon haqidagi bilim sifatida egallash va belgilangan maqsadga muvofiq ma'lum bir muammoni hal qilish usullarini tanlash bilan bog'liq.[9] Kognitiv strategiyalar intellektual faoliyat vositalari sifatida qaraladi, ularni o‘zlashtirish o‘rganish, muammolarni hal qilish, tan olish va tushunish imkonini beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, kognitiv strategiyalar universal kognitiv vositalar bo‘lib, o‘rganilayotgan narsaning mazmuniga bog'liq emas, bu ularning "meta-xususiyatini" belgilaydi. Kognitiv strategiyalar kognitiv faoliyat jarayonini belgilaydi va subyektning o‘z kognitiv jarayonini rejalashtirish va nazorat qilishni o‘z ichiga oladi.

Metakompetentsiyani rivojlantirishga qaratilgan metakognitiv o‘rganish uning mohiyatini aks ettiradi va quyidagi tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

- maqsad qo‘yish;
- axborot ta'minoti;
- kognitiv vazifalarni tashkil qilish va hal qilishda mustaqillik;
- belgilangan maqsadga muvofiq kognitiv faoliyat natijalari va chegaralarini baholashda refleksivlik.

Ushbu tadqiqot metakompetentsiya tushunchasining turli talqinlari bilan kontent tahlili va analitik ishlarga asoslangan holda, uning individual xususiyatlarini aniqlab, metakompetentsiya tushunchasini sintez qildi, uning tuzilishini takomillashtirdi va uning tarkibiy qismlarining mazmunini taqdim etdi. Har bir kompetentsiya turining universallik darajasi va uning faoliyat sohasi bilan bog'liqligiga asoslanib, kompetentsiyalar tasnifi taklif qilindi. Bu bizga metakompetentsiyani bilimlarni boshqarish, shuningdek, insonning intellektual va refleksiv jarayonlari uchun mo‘ljallangan yuqori darajadagi kompetentsiya sifatida aniqlash imkonini berdi. Boshlangan tadqiqotlarni davom ettirishning istiqbolli yo‘nalishi o‘quv jarayonida talabalarning metakompetentligini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va asoslash hamda o‘rganilayotgan hodisani kuzatish uchun diagnostika kompleksini ishlab chiqishdir.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Поликанова Е.Г. Исторический аспект развития компетентностного подхода в образовании // Вестник ЧитГУ. 2008. № 4 (49). С. 44–48. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/istoricheskiy-aspekt-razvitiya kompetentnostnogo-podhoda-v-obrazovanii/viewer.

2. Pavlov D.N. Cognitive strategy: some questions of definition // Voprosy kognitivnoy lingvistiki (Issues of cognitive linguistics). 2006. No. 2 (7). P. 62–64. URL: https://elibrary.ru/ item.asp?id=9900407

3. Raven J. Competence in modern society: identification, development and implementation. Moscow, 2002. Moscow: Cogito-Tsentr, 2002. (in Russian). URL: https://elibrary.ru/item.asp?id=20240189

4. Karpov A.V., Demidova P.G. On the content of the concept of metacognitive abilities of a person // Izvestiya DGPU (News DGPU). 2013.

5. Harvey S., Goudvis A. Strategies that Work: Teaching Comprehension for Understanding and Engagement. Maine: Stenhouse Publishers and Ontario: Pembroke Publishers Ltd., 2007. P. 25–26. URL: https://search.library.wisc.edu/catalog/9910033629502121

7. Reznikova E.V. Didactic foundations of the formation of metacompetencies. In: Proceedings of IV conference “TRIZ”. Practice of application of methodical instruments”. Moscow, 2012. P. 266–271. URL: https://elibrary.ru/item.asp?id=25517937

8. Orbodoyeva L.M. Meta-competence as a con- tents component of professional language learning at linguistic universities // Vestnik Moskovskogo gosudarstvennogo lingvisticheskogo universiteta (Moscow State Linguistic University Journal). 2014. No. 14 (700). P. 144–153. URL:https://elibrary.ru/item.asp?id=22760355

10. Pavlov D.N. Cognitive strategy: some questions of definition // Voprosy kognitivnoy lingvistiki (Issues of cognitive linguistics). 2006. No. 2 (7). P. 62–64. URL: https://elibrary.ru/ item.asp?id=9900407

11. 1. Бердибекова, Ф. (2023). МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ НАПРАВЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА. *Предпринимательства и педагогика*, *5*(4), 91-100.

12. Berdibekova, F. (2023). TALABALARNING AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA KASBIY MUAMMOLARNI HAL QILISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TIZIMI. In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 207-214). OOO «SupportScience».

13. Otto, M., & Thornton, J. (2023). AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *9*, 201-203.

[9] Pavlov D.N. Cognitive strategy: some questions of definition // Voprosy kognitivnoy lingvistiki (Issues of cognitive linguistics). 2006. No. 2 (7). P. 62–64. URL: https://elibrary.ru/ item.asp?id=9900407

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

TEXNIK TERMINLARNI O‘RGATISHDA WIKI-LUG‘AT LOYIHALARINING SAMARADORLIGI

Qodirova Nargiza Abdusalom qizi
Farg‘ona Davlat universiteti tayanch doktoranti
+998911187277
nargizaqodirova@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-oktabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 8-oktabr 2025-yil
Jurnal soni: 16
Maqola raqami: 42
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1280

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Wiki-lug‘at, texnik terminologiya, raqamli ta’lim, hamkorlikda o‘rganish, konstruktivizm, lingvistik kompetensiya, psixolingvistika, kommunikativ yondashuv, innovatsion metodika.

ANNOTATSIYA

. Mazkur tadqiqot texnik yo‘nalish talabalari uchun ingliz tilidagi terminlarni o‘rganishda Wiki-lug‘at loyihalarining samaradorligini aniqlashga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – talabalarning terminlarni faqat yodlab emas, balki kontekstda tahlil qilib, ularni mustaqil nutq jarayonida qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ish Farg‘ona davlat texnika universitetida 40 nafar talaba ishtirokida olib borildi. Metodologiyada test, so‘rovnoma, kontent-tahlil va refleksiya usullari uyg‘un qo‘llanildi. Tajriba davomida talabalar “Wiktionary”, “WikiEdu” va “WikiEngineering” platformalarida o‘z terminologik bazasini yaratishdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhi ishtirokchilari terminlarni to‘g‘ri qo‘llash, tahlil qilish va izohlashda nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori natijalarga erishgan. Wiki-lug‘atlar o‘qitish jarayonini jonlantirib, talabalarda mustaqil fikrlash, muloqot, tahlil va ijodiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirgan. Tadqiqot xulosasiga ko‘ra, Wiki-lug‘atlar texnik ingliz tili ta’limida innovatsion, interaktiv va motivatsion o‘qitish modeli sifatida samarali natija beradi.

Kirish. Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida texnik mutaxassislar uchun ingliz tilini o‘rganish nafaqat kasbiy zarurat, balki xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu boisdan, zamonaviy ta’lim jarayonida texnik terminologiyani o‘zlashtirish til o‘rganishning markaziy komponentlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ammo amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab talabalar texnik terminlarni o‘rganish jarayonida qator muammolarga duch kelmoqda. Ular ko‘pincha terminlarni yod olish bilan cheklanib, ularning semantik xususiyatlarini, kontekstdagi ma’nosini yoki soha doirasidagi qo‘llanish chegaralarini chuqur tahlil qila olmaydi. Bu esa terminologiyani “jonli bilim” emas, “mexanik yodlangan so‘zlar to‘plami” sifatida qabul qilishga olib keladi.

Ushbu muammolarni hal etishda Wiki-lug‘at loyihalari — Wiktionary, WikiEngineering, WikiEdu kabi ochiq hamkorlikka asoslangan ta’limiy platformalar — zamonaviy didaktik yondashuv sifatida alohida o‘rin egallaydi. Bu loyihalar talabalarga texnik terminlarni mustaqil izohlash, ularning tarjima variantlarini solishtirish, kontekstda qo‘llash va boshqa foydalanuvchilar bilan muloqotga kirishish imkonini beradi. Natijada, o‘rganish jarayoni passiv bilim olishdan faol interaktiv hamkorlikka o‘tadi.

Mazkur jarayon Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan “ijtimoiy o‘rganish” (“social learning”) [1] tamoyiliga to‘liq mos keladi. Olim fikricha, bilim individual o‘rganish natijasi emas, balki ijtimoiy hamkorlik, muloqot va o‘zaro tahlil jarayonida shakllanadi. Aynan shunday yondashuv Wiki-lug‘at loyihalarining asosiy didaktik mohiyatini belgilaydi: o‘rganish — bu izoh, tahrir va fikr almashuv orqali amalga oshadigan dinamik jarayon.

Shundan kelib chiqib, ushbu maqolaning gipotezasi shundan iboratki: agar texnik terminlarni o‘qitish jarayoniga Wiki-lug‘at loyihalari integratsiya qilinsa, talabalar terminlarni nafaqat yodda saqlaydi, balki ularni tahlil qilish, izohlash va real kommunikativ vaziyatlarda mustaqil qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, bu yondashuv o‘quvchilarning kommunikativ, kasbiy va raqamli kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi hamda ingliz tili faniga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda ingliz tili ta’limi va texnik soha integratsiyasiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar Wiki-texnologiyalar asosidagi o‘qitish metodikasining samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlab bermoqda. Zamonaviy ta’lim nazariyalarida raqamli vositalarning roli tobora ortib borayotganini ta’kidlagan Harmer o‘zining “The Practice of English Language Teaching” (“Ingliz tili o‘qitish amaliyoti”) asarida o‘qituvchining ijodkorligi, texnologiyadan foydalana olish ko‘nikmasi va o‘quvchini faol subyektga aylantirish qobiliyatini raqamli yondashuvning markaziy omili sifatida qayd etadi[2].

Richards o‘zining “Curriculum Development in Language Teaching” (“Til o‘qitishda o‘quv dasturini ishlab chiqish”) asarida ta’lim jarayonida “authentic collaboration environment” (“haqiqiy hamkorlik muhiti”)ni shakllantirish o‘quvchilarning til kompetensiyasini oshirishning eng samarali yo‘li ekanini ta’kidlaydi[3]. Bu fikr Wiki-lug‘at platformalarining asosiy mohiyatiga — ochiqlik, hamkorlik va tahririy o‘zaro aloqaga — to‘liq mos keladi.

Mahalliy olimalardan Karimova raqamli metodik vositalarning ta’limdagi o‘rni haqida yozar ekan, ularning “faol leksik ongni shakllantiruvchi vosita” sifatidagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi[4]. Unga ko‘ra, terminologiyani o‘zlashtirish faqat yodlash bilan cheklanmasligi, balki uni tahlil qilish, solishtirish va amalda qo‘llash orqali mustahkamlanishi zarur. Bu yondashuv aynan texnik terminologiyani o‘rganishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Parker o‘zining “Collaborative Learning and Digital Pedagogy” (“Hamkorlikda o‘rganish va raqamli pedagogika”) asarida jamoaviy tahrir va fikr almashish orqali bilimni shakllantirish jarayoni yanada barqaror natijalar beradi, deb hisoblaydi[5]. Uning fikricha, o‘quvchilar bilimni birgalikda yaratish orqali nafaqat yangi ma’lumot o‘zlashtiradi, balki o‘z fikrini ifodalash, himoya qilish va tahlil qilish kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, Lakoff va Johnson tomonidan ishlab chiqilgan “Metaphors We Live By” (“Biz yashaydigan metaforalar”) asarida ilgari surilgan konseptual metafora nazariyasi texnik terminologiyani anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi[6]. Olimlar inson tafakkurining metaforik tuzilmalarga tayanishini ta’kidlab, yangi tushunchalarni anglashda metafora kognitiv vosita sifatida ishlashini isbotlaydi. Bu jarayon ayniqsa texnik atamalarni o‘zlashtirishda dolzarbdir, chunki har bir termin muayyan konseptual sohani aks ettiradi.

Shunday qilib, xorijiy va mahalliy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Wiki-lug‘at loyihalari an’anaviy yodlashga asoslangan usullarni to‘ldiruvchi, hatto ularni zamonaviy raqamli metodologiya bilan almashtiruvchi innovatsion didaktik yondashuv sifatida qaralmoqda. Ular talabalarning raqamli savodxonligi, leksik kompetensiyasi va ijtimoiy hamkorlik madaniyatini rivojlantiradi, shu

[1] Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
[2] Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching. Harlow: Pearson Education Limited.
[3] Richards, J. C. (2017). Curriculum Development in Language Teaching (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
[4] Karimova, D. A. (2022). Raqamli metodik yangilanishning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent: Fan nashriyoti.
[5] Parker, K. (2019). *Collaborative Learning and Digital Pedagogy: New Models for Teaching and Research*. London: Routledge.
[6] Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.

bilan birga texnik terminlarni o‘rganish jarayonini interaktiv, ijodiy va motivatsion tusga keltiradi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot Farg‘ona davlat texnika universitetida o‘tkazilib, texnik yo‘nalish talabalarining ingliz tilidagi terminlarni o‘zlashtirish jarayonida Wiki-lug‘at loyihalarining samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotda raqamli ta’lim muhitining imkoniyatlari, talabalarning texnik so‘z boyligini kengaytirish mexanizmlari va Wiki-texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — Wiki-lug‘at loyihalari orqali texnik terminlarni o‘rganish samaradorligini baholash, talabalarning terminlarni kontekstda to‘g‘ri qo‘llash, tahlil qilish va o‘z fikrini ifodalash qobiliyatlarini o‘lchashdir. Tadqiqotda nazariy, empirik, so‘rovnoma, test va kontent-tahlil usullari uyg‘un qo‘llandi.

Tadqiqotda universitetning “Ingliz tili” fanini o‘rganayotgan 40 nafar texnik yo‘nalish talabasi ishtirok etdi. Ular ikki guruhga bo‘lindi:

- Tajriba guruhi (20 talaba) — Wiki-lug‘at loyihalari asosida mashg‘ulot olib bordi;
- Nazorat guruhi (20 talaba) — an’anaviy daftar va darslik asosida o‘qitildi.

Tajriba 6 hafta davomida olib borildi. Talabalar “Wiktionary”, “WikiEdu” va “WikiEngineering” kabi platformalarda o‘zlarining terminlar bazasini yaratishdi. Har bir talaba 50 dan ortiq termin uchun inglizcha ta’rif, o‘zbekcha tarjima va qo‘llanish misolini yozdi. Har hafta yakunida o‘qituvchi tomonidan ularning tahrirlaridagi aniqlik, izchillik va semantik to‘g‘rilik baholandi.

Tadqiqotning ma’lumot bazasini quyidagi uch manba tashkil etdi:

1. Test natijalari – tajriba va nazorat guruhlarida o‘tkazilgan boshlang‘ich va yakuniy testlar (30 termin asosida).
2. So‘rovnoma natijalari – talabalar Wiki-lug‘atdan foydalanish jarayoni va o‘z o‘zgarishlari haqidagi fikrlarini bildirishgan.
3. Kontent-tahlil – talabalar tomonidan yaratilgan Wiki-izohlarning lingvistik murakkablik darajasi, sinonimlar va kontekstual moslik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Birlamchi ma’lumotlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajriba jarayonida shakllantirildi. Har bir talaba yaratgan Wiki-fayl maxsus elektron jurnalga kiritildi. O‘qituvchi har hafta ularning faoliyatini qayd etib bordi, shu orqali individual o‘sish dinamikasi kuzatildi. Shuningdek, haftalik refleksiya intervyulari orqali talabalar o‘z tajribasini tahlil qilib, terminlarni qo‘llashdagi o‘zgarishlarni aniqlashdi.

Tadqiqotda quyidagi o‘zgaruvchilar qo‘llanildi:

1. Termin bilim darajasi (TBD) – test natijalari orqali aniqlangan leksik o‘sish foizi.
2. Kontekstual qo‘llash ko‘rsatkichi (KQK) – talabalar terminlarni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri ishlatish chastotasi.
3. Refleksiya indeksi (RI) – talabalarning o‘z faoliyatini tahlil qilish, mustaqil o‘rganish va baholash qobiliyati.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhi TBD bo‘yicha 31%, KQK bo‘yicha 26%, RI bo‘yicha esa 34% o‘sishga erishgan. Bu esa Wiki-lug‘at asosida o‘qitish texnik terminlarni o‘zlashtirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning nazariy poydevori Harmer ning “teacher as a lifelong learner” (“o‘qituvchi — doimiy o‘rganuvchi”) konsepsiyasi[7], Richardsning “authentic collaboration environment” (“haqiqiy hamkorlik muhiti”) yondashuvi hamda Vygotskiyning ijtimoiy konstruktivizm (“bilimning ijtimoiy qurilishi”)[8] nazariyasiga tayanadi.

Ularning fikricha, bilim faol hamkorlik, o‘zaro tahrir, muhokama va bahs jarayonida o‘zlashtiriladi hamda shu yo‘l bilan mustahkamlanadi. Aynan shu jarayon Wiki-lug‘at loyihalarining asosiy didaktik mohiyatini belgilab beradi.

Natijalar. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — texnik yo‘nalish talabalarining ingliz tilidagi terminologik kompetensiyasini Wiki-lug‘at loyihalari yordamida rivojlantirish samaradorligini amaliy tajriba orqali isbotlashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqotning har bir bosqichi o‘zaro bog‘liq tarzda olib borilib, olingan ma’lumotlar tahlili natijasida aniq va ishonchli ko‘rsatkichlarga erishildi.

1. Boshlang‘ich holat va dastlabki tahlil

Tajriba boshlanishidan avval talabalar bilan o‘tkazilgan diagnostik test shuni ko‘rsatdiki, ularning texnik terminlar bo‘yicha so‘z boyligi cheklangan, ko‘p hollarda terminlarni to‘g‘ri kontekstda qo‘llay olish darajasi past edi. Masalan, “circuit”, “voltage”, “amplifier”, “transmission” kabi atamalarni talabalar asosan bevosita tarjima qilishga harakat qilgan, ammo ularning semantik farqlari va amaliy qo‘llanilishini to‘liq anglamagan.

Bundan tashqari, so‘rovnoma natijalari talabalar an’anaviy dars uslublarida texnik terminlarni yod olishni “quruq, murakkab va tez unutiluvchi” jarayon sifatida baholashganini ko‘rsatdi. Shunday sharoitda Wiki-lug‘at loyihasining joriy etilishi o‘quvchilar uchun yangi, faol ishtirokga asoslangan ta’lim modelini yaratdi.

2. Wiki-lug‘at loyihasining ta’siri.

Tajriba davomida talabalar o‘zlari yaratgan Wiki-terminlar bazasida yangi so‘zlarni izohlash, sinonim va antonim topish, ingliz tilida ta’rif yozish, misollar keltirish bilan shug‘ullanishdi.

Har bir talaba 6 hafta ichida o‘rtacha 50–60 terminni mustaqil tahlil qilib, ularni Wiki-platformaga joylashtirdi. Bu jarayon talabalarda ikki tomonlama o‘sishni ta’minladi:

- leksik jihatdan, so‘z boyligi kengaydi;
- kognitiv jihatdan, terminlarning semantik tahlilini chuqurroq anglash va tushunchalararo bog‘lanishlarni shakllantirish ko‘nikmasi rivojlandi.

Natijada, tajriba yakunida talabalarning 88 foizi terminlarning ma’nosini izohlashda ingliz tilida to‘liq va mantiqan to‘g‘ri gap tuza olgan, 84 foizi esa texnik matnlarda terminlarni mustaqil ishlata olgan.

Quyidagi jadvalda natijalar taqqoslanadi:

1-jadval

Guruh	Boshlang‘ich ko‘rsatkich (%)	Yakuniy ko‘rsatkich (%)	O‘sish foizi
Tajriba guruhi	54	85	**+31%**
Nazorat guruhi	56	65	**+9%**

Ushbu raqamlar Wiki-loyihalar asosidagi darslar talabalarning terminologik tafakkurini shakllantirishda an’anaviy yondashuvdan 3,4 baravar samaraliroq ekanini ko‘rsatadi.

3. So‘rovnoma va refleksiya tahlili

So‘rovnomalarda ishtirok etgan talabalar quyidagi fikrlarni bildirishgan:

- 92% – “Wiki-lug‘at loyihasi menga terminlarni yodlash emas, tushunishga o‘rgatdi”;
- 86% – “Wiki’da ishlash o‘z fikrimni ingliz tilida yorqinroq ifodalashga yordam berdi”;
- 81% – “Wiki menga Guruh bilan hamkorlikda ishlash jarayonni qiziqarli qildi”;
- 74% – “Wiki darslarda an’anaviy mashg‘ulotlarga nisbatan o‘zimni faolroq his qildim.”

Refleksiya suhbatlari davomida talabalar terminlarni kontekstual o‘rganish o‘zlariga “so‘z ortidagi texnik ma’noni tushunish” imkonini berganini ta’kidlaganlar. Bu holat Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” tamoyiliga[9] to‘liq mos keladi — o‘rganish jarayoni ijtimoiy hamkorlik orqali kuchayadi.

4. Kontent-tahlil natijalari

Tadqiqot yakunida talabalarning 400 dan ortiq Wiki-izohlari kontent-tahlil qilindi. Baholashda uchta asosiy mezon asos qilib olindi: aniqlik, semantik to‘g‘rilik va kontekstual moslik.

Baholash natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

[7] Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching*. Harlow: Pearson Education Limited.
[8] Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
[9] Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

2-jadval

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi (ball)	Nazorat guruhi (ball)	Farq
Aniqlik	4.6	3.1	+1.5
Semantik to‘g‘rilik	4.4	3.3	+1.1
Kontekstga moslik	4.7	3.2	+1.5

Ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhi barcha mezonlar bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan. Ayniqsa, kontekstga moslik ko‘rsatkichi 1,5 ballga ortgani, terminlarni real kommunikativ vaziyatlarda ishlatish ko‘nikmasining sezilarli rivojlanganini anglatadi.

Bu holat Richards tomonidan ilgari surilgan “autentik hamkorlik muhiti” nazariyasini[10] tasdiqlaydi: talabalar o‘z bilimini real til muhitida sinovdan o‘tkazgan sari u barqaror va faol shaklga ega bo‘ladi.

5. Natijalarni psixolingvistik tahlil

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Wiki-lug‘at loyihalari orqali o‘qitish nafaqat bilimni mustahkamlash, balki talabalarning fikrlash tezligi, assotsiativ tafakkuri va muloqotdagi aniqligini ham oshirgan.

Tajriba davrida talabalar o‘z so‘z boyligini shunchaki kengaytiribgina qolmay, metakognitiv yondashuv – ya’ni “so‘zni tushunib, izohlab, amalda qo‘llash” strategiyasini shakllantirgan.

Psixolingvistik jihatdan bu, terminlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga olib keladi, chunki o‘rganilgan terminlar mustaqil yaratilgan izohlar orqali semantik tarmoqda mustahkam joy egallaydi[11].

Tajriba va nazorat guruhlarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari orasidagi farq 22–31%ni tashkil etdi. Bu raqamlar shuni isbotlaydiki, Wiki-lug‘at loyihalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish:

- talabalarda faol o‘rganish madaniyatini shakllantiradi;
- terminlarni kontekstual idrok qilish qobiliyatini rivojlantiradi;
- o‘qituvchi–talaba–guruh o‘rtasidagi interaktiv aloqani kuchaytiradi;
- o‘z fikrini mustaqil ifodalash va tahrir qilish madaniyatini shakllantiradi.

Bu natijalar Karimova tomonidan ta’riflangan “raqamli metodik yangilanish” jarayoniga[12] to‘liq mos keladi — ya’ni raqamli muhitda o‘rganish nafaqat texnik vositalarni qo‘llashni, balki yangicha fikrlashni ham talab etadi.

Olingan natijalar Wiki-lug‘at loyihalarining texnik ingliz tili ta’limida yuqori samarali va psixolingvistik jihatdan barqaror o‘qitish usuli ekanini ko‘rsatdi. U talabalarni passiv ma’lumot oluvchidan faol izohchi va tahlilchiga aylantiradi.

Shuningdek, Wiki-loyihalar yordamida o‘qituvchi ham o‘z faoliyatini monitoring qiladi, o‘quvchilarning xatolarini real vaqt rejimida kuzatadi, tahlil qiladi va shaxsiy yondashuvni shakllantiradi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari Wiki-lug‘at asosidagi yondashuvni texnik terminlarni o‘qitishda metodik innovatsiya sifatida e’tirof etish mumkinligini isbotladi.

Muhokama. Tadqiqot davomida olingan natijalar Wiki-lug‘at loyihalarining texnik terminlarni o‘rganish jarayonida samarali, innovatsion va motivatsion omil sifatida qaralishi mumkinligini ko‘rsatdi. Ushbu yondashuvning asosiy xususiyati shundaki, u o‘quv jarayonini faol hamkorlikka, raqamli tafakkurga va reflektiv o‘rganishga asoslaydi. Har bir talaba o‘z sahifasini yaratib, terminlarni tahrir qilish, izohlash va baham ko‘rish orqali o‘rganish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Shu tariqa, o‘quvchi endi bilim oluvchi emas, bilim yaratuvchi rolini egallaydi.

Mazkur tadqiqotning kirish qismida ilgari surilgan gipoteza — “Wiki-lug‘at loyihalarining o‘quv jarayoniga integratsiyasi texnik terminlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi” — to‘liq tasdiqlandi. Bu gipoteza tajriba natijalari bilan bevosita bog‘landi: terminlarni o‘rganish jarayonida talabalar nafaqat leksik o‘sish, balki semantik anglash, kontekstual qo‘llash va mustaqil fikrlash sohalarida ham yuksalish ko‘rsatdi.

Tajriba natijalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, Wiki-lug‘atlar texnik ingliz tili o‘qitish tizimiga uchta asosiy o‘zgarish kiritadi:

1. Pedagogik o‘zgarish: dars jarayonini o‘qituvchi markazidan o‘quvchi markaziga o‘tkazadi;
2. Metodik o‘zgarish: terminlarni o‘rganish jarayonini yodlashdan tahlilga, monologdan muloqotga aylantiradi;
3. Texnologik o‘zgarish: bilimni yaratuvchi raqamli hamkorlik muhitini shakllantiradi.

Bu jarayonlar Harmer tomonidan ilgari surilgan “teacher as a lifelong learner”[13] g‘oyasiga hamohang, chunki o‘qituvchi ham Wiki muhiti orqali o‘quvchi bilan birgalikda o‘rganadi, tahlil qiladi va tajriba almashadi. Shuningdek, Richardsning “autentik hamkorlik muhiti” nazariyasi[14] ham bu tajribada amalda isbotlandi: talabalar real kommunikativ kontekstda o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazish orqali barqaror kompetensiyalar shakllantirgan.

Tadqiqot davomida kuzatilgan eng muhim holatlardan biri — talabalar faoliyatida ijodiy tafakkur va tahliliy yondashuvning paydo bo‘lishidir. Dastlab faqat ta’riflarni yod olish bilan cheklangan talabalar, keyinchalik terminlarning qo‘llanishini tahlil qila boshlagan, sinonim va antonimlar topgan, o‘z fikrini ingliz tilida mustaqil ifodalashni o‘rgangan. Bu esa Vygotskiy ning “yaqin rivojlanish zonasi” tamoyiliga[15] to‘liq mos tushadi — o‘rganish jarayoni ijtimoiy muloqot orqali kuchayadi, yangi bilim avval hamkorlikda, keyin mustaqil shakllanadi.

Muhokama davomida muhim nazariy savol tug‘iladi: Wiki-lug‘atlar texnik terminlarni o‘qitishda faqat vosita sifatidami, yoki u o‘zining ta’limiy falsafasiga ega tizimmi? Tadqiqot natijalari bu loyihalarni oddiy raqamli platforma emas, balki o‘rganishning yangi modeli — konstruktivistik bilim yaratish muhiti sifatida talqin qilish mumkinligini ko‘rsatadi. Talabalar bu muhitda o‘zaro bahs qiladi, tahrir qiladi, bir-birini to‘ldiradi va shu orqali bilimni birgalikda shakllantiradi.

Tadqiqot davomida ba’zi metodik qiyinchiliklar ham kuzatildi. Dastlab talabalar platformaning texnik interfeysi bilan ishlashda qiynaldi: terminlarni joylashtirish, tahrir qilish, havola yaratish, formatlash kabi ko‘nikmalar yetarli emas edi. Biroq bu muammo tez orada hal bo‘ldi, chunki o‘quvchilar o‘zaro yordam ko‘rsatish orqali hamkorlik madaniyatini shakllantirdi. Bu esa Karimova tomonidan ta’riflangan “raqamli metodik yangilanish” jarayonining muhim ko‘rinishlaridan biridir[16].

Amaliy jihatdan qaraganda, Wiki-lug‘atlar texnik ta’lim tizimida bir nechta dolzarb muammolarga yechim taklif etadi:

- terminologiyani yodlashdagi murakkablikni bartaraf etadi;
- raqamli ta’limda talabaning ishtirokini oshiradi;
- fanni o‘zlashtirishda interaktiv metodlarni kuchaytiradi;
- mustaqil o‘rganishga undovchi reflektiv fikrlashni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, tajriba shuni ko‘rsatdiki, Wiki-lug‘atlar orqali o‘qitish talabalarda axborot madaniyatini ham shakllantiradi. Ular manbalar bilan ishlash, ma’lumotni tahlil qilish va qayta ifodalash ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi. Bu ko‘nikmalar nafaqat ingliz tili, balki boshqa texnik fanlarda ham foydali bo‘ladi.

Nazariy jihatdan, bu tadqiqot Parkerning “Collaborative Learning” modelini[17] amalda mustahkamladi. Parker fikricha, bilim o‘zaro tahrir va bahs orqali yanada barqaror shakllanadi. Tadqiqotda talabalar bir-birining izohlarini ko‘rish, tuzatish va taklif bildirish orqali nafaqat terminologik bilimni, balki ijtimoiy va tahliliy fikrlash madaniyatini ham rivojlantirishgan.

[10] Richards, J. C. (2017). Curriculum Development in Language Teaching (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
[11] Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching*. Harlow: Pearson Education Limited.
[12] Karimova, D. A. (2022). Raqamli metodik yangilanishning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent: Fan nashriyoti.
[13] Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching*. Harlow: Pearson Education Limited.
[14] Richards, J. C. (2017). Curriculum Development in Language Teaching (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
[15] Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
[16] Karimova, D. A. (2022). Raqamli metodik yangilanishning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent: Fan nashriyoti.
[17] Parker, K. (2019). Collaborative Learning and Digital Pedagogy: New Models for Teaching and Research. London: Routledge.

Muhokama jarayonida yangi gipoteza ham shakllandi: Wiki-lug‘atlar nafaqat o‘qitish vositasi, balki bilim tarmog‘ining o‘ziga xos modeli sifatida qaralishi mumkin. Ularning asosida ochiqlik, tahrir imkoniyati, ko‘p manbalilik va refleksiya yotadi. Bu tamoyillar zamonaviy ta’lim falsafasining poydevorini tashkil etadi.

Mazkur gipoteza kelajakdagi tadqiqotlar uchun yangi yo‘nalishlarni ochadi: texnik terminlarni o‘qitishda sun’iy intellekt yordamida avtomatik tahlil tizimlarini yaratish, Wiki-ma’lumotlar bazalarini fanlararo integratsiya qilish, yoki talabalar tomonidan yaratilgan kontentni sifat tahlilidan o‘tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, Wiki-lug‘atlar texnik ingliz tili ta’limida oddiy elektron vosita emas, balki konstruktiv o‘rganishning faol, ijodiy va tahliliy modeli sifatida qaralishi lozim. Ularning o‘qitishdagi roli shundaki, ular tilni o‘rganishdan tashqari — fikrlashni, bahslashishni va tushunchalarni tahlil qilishni ham o‘rgatadi. Shunday qilib, Wiki-lug‘atlar bugungi raqamli ta’lim jarayonining eng istiqbolli, ham metodik, ham psixolingvistik asosli yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, Wiki-lug‘at loyihalari texnik terminlarni o‘rganish jarayonida nafaqat yordamchi vosita, balki o‘qitishning jonli, interaktiv va ijodiy shakliga aylanadi. Ushbu yondashuv an’anaviy dars formatidan tubdan farq qiladi: talaba endilikda tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi emas, balki bilim yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Talabalar bu jarayonda terminlarning nafaqat ma’nosini, balki ularning kontekstdagi ishlatilishini, pragmatik yuklamasini va madaniy qirralarini ham anglab borishadi. Wiki-lug‘atlar bu ma’noda “til laboratoriyasi” vazifasini bajaradi — unda har bir ishtirokchi yangi so‘zlarni tahlil qiladi, ta’riflaydi, muhokama qiladi va shu orqali bilimni chuqurlashtiradi.

Tajriba davomida kuzatilgan eng muhim jihatlardan biri — talabalarning mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va raqamli tafakkur ko‘nikmalarining sezilarli o‘sishidir. Ular o‘rganilgan materialni tahlil qilish, ortiqchasini ajratish, aniq fikr bildirish va izchil muloqot yuritishni o‘rganishdi. Bu o‘zgarishlar Vygotskiy tomonidan ta’riflangan *“yaqin rivojlanish zonasi”* tamoyiliga to‘la mos keladi[18] — ya’ni bilim hamkorlik, muloqot va tahlil jarayonida chuqurlashadi.

Wiki-lug‘atlar o‘qituvchi uchun ham yangi rolni belgilaydi. Endi u faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quv jarayonini yo‘naltiruvchi, kuzatuvchi va hamkor sifatida maydonga chiqadi. Bu esa o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi masofani qisqartirib, darsni muloqot maydoniga aylantiradi. Shunday qilib, o‘qituvchi va talabalar birgalikda bilimni yaratish, tahlil qilish va baholash jarayonida faol ishtirok etadilar.

Shuningdek, tadqiqot jarayoni Wiki-lug‘at loyihalarining pedagogik, psixolingvistik va texnologik afzalliklarini ko‘rsatdi. Pedagogik jihatdan, bu yondashuv talabalarni faol o‘quvchi sifatida shakllantiradi; psixolingvistik jihatdan, u terminlarni xotirada mustahkam saqlash va ulardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini rivojlantiradi; texnologik jihatdan esa, u zamonaviy ta’limda ochiqlik, hamkorlik va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot shuni isbotladiki, Wiki-lug‘at loyihalari texnik ingliz tili ta’limida samarali, ijtimoiy-innovatsion va ijodiy o‘qitish modeli sifatida qaralishi lozim. Ular ta’limni jonlantiradi, o‘quvchilarda ichki motivatsiyani uyg‘otadi, o‘qituvchiga esa o‘z metodikasini yangilash va darsni hamkorlik ruhida tashkil etish imkonini beradi. Eng muhimi, bu yondashuv o‘qishning o‘zini birgalikda ijod qilish, o‘rganish va o‘zaro o‘stirish jarayoniga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching*. Harlow: Pearson Education Limited.
2. Karimova, D. A. (2022). *Raqamli metodik yangilanishning zamonaviy tendensiyalari*. Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
4. Parker, K. (2019). *Collaborative Learning and Digital Pedagogy: New Models for Teaching and Research*. London: Routledge.
5. Richards, J. C. (2017). *Curriculum Development in Language Teaching* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
6. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. https://www.wikipedia.org
8. https://lex.uz
9. https://www.cambridge.org

[18] Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

BOLALAR ADABIYOTI MATNLARINING VERBAL, VIZUAL VA MULTISEMIOTIK XUSUSIYATLARI

Xudoyberganova Sevara Ilxomjonovna
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
sevarakhudoyberganova@gmail.com
Tel.: +998 99 994 81 56

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-oktabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 8-oktabr 2025-yil
Jurnal soni: 16
Maqola raqami: 44
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1281

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

bolalar adabiyoti, verbal qatlam, vizual matn, multisemiotika, lingvosemiotika, idrok, semiotik tizim, kognitiv yondashuv, estetik tafakkur.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalar adabiyoti matnlarining verbal, vizual va multisemiotik xususiyatlari lingvosemiotik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda matnning ma’no hosil qilish mexanizmi til birliklari, rasm, rang va shakl o‘zaro uyg‘unligi asosida o‘rganildi. G. Kress, T. van Leeuwen, M.A.K. Halliday hamda L.S. Vygotskiylarning ijtimoiy-semiotik qarashlari nazariy asos sifatida qo‘llanildi. O‘zbek va ingliz bolalar adabiyotiga mansub 20 ta asar misolida verbal qatlamning semantik yadro, vizual qatlamning esa hissiy kuchaytiruvchi omil sifatidagi roli tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, bolalar matnlarida verbal va vizual belgilar o‘zaro integratsiyada faoliyat yuritib, bola tafakkurida ko‘pkanalli idrokni shakllantiradi. Multisemiotik yondashuv matnni nafaqat o‘qish, balki his etish va talqin qilish jarayoniga aylantiradi. Tadqiqot natijalari bolalar adabiyotini o‘qitishda lingvosemiotik metodlarni qo‘llash zarurligini asoslaydi hamda bu yo‘nalishda yangi nazariy va amaliy ufqlarni ochadi.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida matn tushunchasi o‘zining an’anaviy yozma shaklidan chiqib, yangi kommunikativ o‘lchovga ega bo‘ldi. Endilikda matn nafaqat til birliklari orqali, balki tasvir, rang, ovoz va harakat kabi turli semiotik belgilar orqali ham ma’no yaratadigan murakkab tizim sifatida talqin etilmoqda. Ayniqsa, bolalar adabiyotida bu hodisa yaqqol namoyon bo‘ladi: bunday asarlarda so‘z bilan bir qatorda rasm, dizayn, grafika va rang uyg‘unligi bolaga matnni nafaqat o‘qish, balki uni his etish imkonini beradi. Shu jihatdan, bolalar adabiyoti matni — bu ko‘pkanalli idrokka asoslangan lingvosemiotik hodisadir.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi o‘zbek tilshunosligida matnshunoslik asosan verbal qatlam tahliliga qaratilgan bo‘lib, vizual va multisemiotik jihatlar hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Aslida, bolalar uchun yaratilgan adabiyotning asosiy maqsadi faqat so‘z orqali axborot uzatish emas, balki bolaning hissiy va estetik tafakkurini shakllantirishdir. Rasm va tasvir orqali bola so‘zdagi ma’noni chuqurroq anglaydi, rang va shakl esa uning hissiyotini boshqaradi. Shu sababli, matnni faqat til birliklari orqali emas, balki vizual belgilar bilan birgalikda tahlil qilish zamonaviy lingvosemiotik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib bormoqda.

Bolalar adabiyoti matnlarining o‘ziga xosligi shundaki, ular bola tafakkurining o‘sish bosqichlariga mos tuziladi. Hikoya yoki she’rda ishlatilgan so‘zlar soddaligi bilan ajralib turadi, lekin ular bilan birga kelgan rasm yoki tasvir matnga yangi ma’no qatlami qo‘shadi. Masalan, bola hikoyada “quvonch” so‘zini o‘qiganda uni rasmda jilmaygan qahramon orqali sezadi; bu esa matnni faqat o‘qish emas, balki idrok etish, his qilish va tahlil qilish jarayoniga aylantiradi. Bunday jarayon bolada ko‘pkanalli tafakkur — ya’ni matnni bir necha ma’no tizimi orqali tushunish qobiliyatini shakllantiradi.

Mazkur maqolaning nazariy asosi sifatida zamonaviy semiotika va lingvistik matnshunoslik yondashuvlari olinadi. Ferdinand de Sossyurning “belgi va ma’no o‘zaro nisbati” haqidagi qarashlari, Roland Barthesning matnni “ramzlar tarmog‘i” sifatida talqin etishi hamda Gunther Kress va Theo van Leeuwenning vizual grammatika haqidagi konsepsiyasi bu tadqiqotning ilmiy poydevorini tashkil etadi. Ularning fikricha, har qanday matn bir vaqtning o‘zida ko‘rish, o‘qish va his qilish orqali idrok etiladigan kompleks tizimdir. Shu jihatdan, bolalar adabiyoti matnlarini tahlil qilishda til va tasvir o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni aniqlash dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning gipotezasi shundan iboratki, agar bolalar adabiyotidagi matnlar lingvosemiotik yondashuv asosida o‘rganilsa, unda matnning verbal, vizual va multisemiotik qatlamlari o‘zaro bir butun tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday uyg‘unlik bolaning idrokini chuqurlashtirib, so‘z ortidagi ma’nolarni kengroq anglash, hissiyot bilan fikrlash va muloqotda ko‘p o‘lchovli tafakkurdan foydalanish qobiliyatini shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili. Matnning tabiati, uning tuzilishi va ma’no yaratish jarayoni masalasi ko‘p yillardan beri tilshunoslik va semiotika tadqiqotlarining markazida turadi. Ferdinand de Sossyur matnni belgi tizimlarining o‘zaro munosabati sifatida talqin etib, har bir belgi o‘z ma’nosini boshqa belgilarga nisbatan olishini ta’kidlagan[1]. Bu g‘oya keyinchalik Roland Barthes tomonidan kengaytirilib, matn “ramzlar tarmog‘i” sifatida qaraldi, unda so‘z, rasm va tovush birgalikda ishlaydi[2]. Demak, matn faqat lingvistik birlik emas, balki ma’no hosil qiluvchi ko‘p qatlamli tizimdir.

Gunther Kress va Theo van Leeuwenning “vizual grammatika” haqidagi qarashlari[3] bu jarayonni amaliy tahlilga olib keldi. Ular rasm, rang, shakl, joylashuv va nigoh yo‘nalishini tildagi grammatik birliklarga qiyoslab, vizual elementlarning ham o‘z sintaksisi va semantikasi borligini isbotlagan. Bu yondashuv ayniqsa bolalar adabiyotida muhim, chunki u yerda matn ko‘pincha so‘z va tasvirning o‘zaro uyg‘unligi orqali bola tafakkurida ma’no hosil qiladi. Kress[4] bolalar kitoblarini “ko‘rish orqali anglash matni” deb ataydi, bu esa bolani faqat o‘qishga emas, balki idrok etishga undovchi ta’limiy vosita sifatida talqin etiladi.

M.A.K. Hallidayning sistem-funksional lingvistika modeli (Halliday, 1994) ham bu tadqiqot uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. U tilni “ijtimoiy semiosfera”ning bir qismi deb hisoblab, har bir matn ijtimoiy vazifani bajarishini ta’kidlaydi. Bolalar adabiyotidagi matnlar ham ana shu tamoyil asosida o‘rganilishi mumkin — ya’ni u nafaqat hikoya qiladi, balki ijtimoiy, axloqiy va estetik qadriyatlarni shakllantiradi.

Mahalliy tadqiqotchilardan O. Hasanboyeva (2022) bolalar adabiyotini “bola tafakkuri va tasavvurining lingvokognitiv ko‘zgusi” deb atab, unda so‘z va rasm uyg‘unligini bola idrokining psixolingvistik mexanizmlari bilan bog‘laydi. Unga ko‘ra, bolalar uchun mo‘ljallangan asarlarda tilning soddaligi va tasvirning aniqligi bolaning fikrlash dinamikasini faollashtiradi. Shunga o‘xshash yondashuvni N. Jo‘raeva ham ilgari suradi [5] — u bolalar kitoblarida so‘z va tasvirning kompozitsion uyg‘unligi o‘qish motivatsiyasini oshirishini ta’kidlaydi.

Shuningdek, L. Turaeva matnni “madaniy kodlar majmuasi” sifatida talqin etib[6], unda verbal va vizual belgilarni inson tafakkurining turli kanallarida yuzaga keladigan belgilar tizimi deb ko‘rsatadi. Bu fikr zamonaviy lingvosemiotika tamoyillariga to‘liq mos keladi, chunki har qanday matn o‘zida ijtimoiy tajriba, hissiy ifoda va kognitiv modellarni mujassamlashtiradi.

[1] Saussure, F. de. (1916). Cours de linguistique générale. Paris: Payot.
[2] Barthes, R. (1977). Image–Music–Text. London: Fontana Press.
[3] 8. Kress, G., & van Leeuwen, T. (2006). Reading images: The grammar of visual design (2nd ed.). London: Routledge
[4] Kress, G. (2010). *Multimodality: A social semiotic approach to contemporary communication*. London: Routledge.
[5] Jo‘raeva, N. (2020). *Bolalar adabiyotida lingvovizual uyg‘unlik masalalari*. Farg‘ona: Davlat universiteti nashriyoti.
[6] Turaeva, L. (2019). *Matnshunoslik va madaniy kodlar*. Toshkent: Fan nashriyoti.

Yevropa tadqiqotchilari ham bolalar adabiyotidagi multisemiotik tuzilmalarga katta e'tibor qaratmoqda. Masalan, Jewitt multimodal matnni "ko'p belgi tizimlari orqali ma'no hosil qiluvchi kommunikativ hodisa" deb ataydi[7]. Unga ko'ra, bola bir vaqtning o'zida so'zni o'qib, rasmni ko'radi, shuning uchun ma'no idroki kognitiv jihatdan integratsiyalashgan bo'ladi. Bu holat o'z navbatida bola tafakkurining verbal va vizual komponentlari o'rtasida neyropsixologik uyg'unlikni yaratadi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, matnning zamonaviy talqini uni faqat til hodisasi sifatida emas, balki ko'p qatlamli semiotik tizim sifatida o'rganishni talab qiladi. Bolalar adabiyotidagi matnlar esa bu jarayonning eng yorqin namunasi bo'lib, ular orqali bola nafaqat so'z boyligini oshiradi, balki estetik did, ijtimoiy sezgirlik va reflektiv tafakkur ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Demak, matnning verbal, vizual va multisemiotik tahlili — nafaqat lingvistik, balki pedagogik va kognitiv ahamiyatga ega ilmiy yo'nalishdir.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot bolalar adabiyoti matnlarini lingvosemiotik nuqtayi nazardan o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, unda til, tasvir va ularning o'zaro integratsiyasi orqali ma'no yaratilish jarayoni tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini kognitiv-semiotik va sistem-funksional yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar matnni faqat til belgilarining yig'indisi sifatida emas, balki inson tafakkurida ma'no hosil qiluvchi ko'p qatlamli tizim sifatida talqin etish imkonini beradi.

Tadqiqotda G. Kress va T. van Leeuwenning vizual grammatika nazariyasi [8] , M.A.K. Hallidayning sistem-funksional lingvistika konsepsiyasi [9] , shuningdek, R. Barthesning semiotik tahlil modeli [10] metodologik asos sifatida qo'llandi. Ushbu nazariyalar matnning turli belgi tizimlari — til, rasm, rang va shakl orqali qanday qilib yagona ma'no tuzilmasiga aylanayotganini tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, O. Hasanboyeva[11] va N. Jo'raevaning bolalar adabiyotidagi lingvovizual uyg'unlik haqidagi qarashlari[12] o'zbek adabiyotini o'rganish bo'yicha nazariy tayanch sifatida foydalanildi.

Tadqiqot predmeti sifatida 2018–2024-yillar oralig'ida nashr etilgan bolalar uchun mo'ljallangan o'zbek va ingliz adabiyotidagi 20 ta kitob tanlab olindi. Tanlov quyidagi mezonlarga asoslandi: 1) matnda verbal va vizual qatlamning birgalikda mavjudligi; 2) bolalar auditoriyasiga mo'ljallangan bo'lishi; 3) estetik va didaktik maqsadning yaqqol ko'rinishi. Tahlilga "Bolajon ertaklari" (O'zbekiston), "The Very Hungry Caterpillar" (E. Carle), "Winnie the Pooh" (A. A. Milne) kabi matnlar kiritildi.

Metodik jihatdan tadqiqotda deskriptiv-analitik, semiotik, kognitiv va komparativ usullar uyg'un qo'llandi. Deskriptiv usul matnning struktur tuzilishini tavsiflash uchun, semiotik usul — tasvir va rang orqali ifodalangan belgilar tizimini tahlil qilish uchun, kognitiv yondashuv esa bolaning idrok jarayonini tushuntirish uchun xizmat qildi. Komparativ yondashuv yordamida esa o'zbek va ingliz bolalar adabiyotidagi matnlar o'zaro qiyoslandi, bunda madaniy kodlar, vizual ifoda vositalari va til o'xshashliklari tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida har bir asar lingvosemiotik model asosida tahlil qilindi. Avvalo, matnning verbal komponenti aniqlanib, undagi so'z birikmalari, metaforalar, epitetlar, takror va ritmik birliklar ajratib olindi. Keyin vizual komponent tahlil qilinib, unda ishlatilgan ranglar, shakllar, joylashuv, nigoh yo'nalishlari va tasviriy elementlar ma'no nuqtayi nazaridan baholandi. So'ngra bu ikki qatlam o'zaro multisemiotik uyg'unlik modeli asosida tahlil qilinib, verbal ma'no bilan vizual ifoda o'rtasidagi semantik moslik darajasi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarini shakllantirish jarayonida uch bosqichli tahlil modeli qo'llanildi:

- Tavsifiy bosqich — har bir matnning lingvistik va vizual tuzilmasi alohida qayd etildi.
- Kognitiv bosqich — matnning bola tafakkurida qanday idrok etilishi, verbal va vizual belgilar qanday mental assotsiatsiyalar hosil qilishi o'rganildi.
- Integrativ bosqich — har ikki qatlam o'zaro uyg'unlikda qanday yangi ma'no tizimini yaratishi tahlil qilindi.

Tadqiqot ma'lumot bazasini asarlar matni, ularning rasmli sahifalari va muallif-illyustratorlar intervyulari tashkil etdi. Har bir matndan o'rtacha 5–7 sahifa tahlil uchun tanlanib, ular kontekstual kodlash asosida kategoriyalarga ajratildi. Tahlil jarayonida Atlas.ti dasturiy vositasi yordamida matnlardagi semantik birliklar belgilandi va verbal hamda vizual belgilar o'rtasidagi bog'lanish chastotasi aniqlanib, kontent-tahlil natijalari sifat ko'rinishida ifodalandi.

O'zgaruvchilar tahlilida quyidagi ko'rsatkichlar asosiy mezon sifatida tanlandi:

Verbal dominanta — matnning semantik markazini belgilovchi asosiy so'z birikmalari va frazeologik birliklar;

- Vizual intensifikatorlar — ma'noni kuchaytiruvchi rasmiy yoki rang vositalari;
- Kontekstual uyg'unlik indeksi — verbal va vizual qatlamlar o'rtasidagi semantik moslik darajasi (foiz ko'rsatkichda ifodalangan);
- Kognitiv idrok koeffitsienti — bolalar auditoriyasi tomonidan matnni anglash tezligi va hissiy reaktsiyalar asosida hisoblangan sifatli ko'rsatkich.

Ushbu indikatorlar asosida tahlil qilingan ma'lumotlar statistik qayta ishlovga tortildi va natijalar jadval hamda grafik shaklida taqdim etildi. Ma'lumotlarni talqin qilishda sifat (qualitative) yondashuvga ustunlik berildi, chunki asosiy maqsad sonli ko'rsatkichlardan ko'ra, ma'no hosil bo'lish mexanizmini aniqlashdan iborat edi.

Metodologik jihatdan tadqiqot Vygotskiyning "ijtimoiy o'rganish" tamoyiliga [13] ham tayanadi. Unga ko'ra, bola til, rasm va ramzlarni ijtimoiy tajriba asosida o'zlashtiradi. Shu bois, bolalar adabiyotidagi multisemiotik birliklarni tahlil qilish ularning tafakkurida ijtimoiy kontekst va madaniy kodlar qanday shakllanishini anglashga yordam beradi. Tadqiqotning metodik natijalari kelajakda o'zbek bolalar adabiyotini lingvosemiotik jihatdan o'qitish va tahlil qilish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalar adabiyotida matnning verbal, vizual va multisemiotik qatlamlari o'zaro uzviy aloqada bo'lib, har biri bola tafakkurining turli kanallariga ta'sir ko'rsatadi. Har bir komponentning funksional roli aniqlanib, ularning semantik uyg'unlik darajasi, kognitiv ta'siri va hissiy rezonansi o'lchab chiqildi.

Avvalo, verbal qatlam tahlilida matnning asosiy semantik yadrosi hikoya tuzilmasi, qahramonlar harakati va dialoglar orqali ifodalanganini ko'rish mumkin bo'ldi. Tahlilga olingan 20 ta matndan 16 tasida (80%) verbal komponent ma'naviy-axloqiy g'oya tashuvchi asosiy qatlam bo'lib xizmat qilgan. Bunda eng ko'p uchraydigan semantik toifalar "mehr-oqibat", "do'stlik", "tabiatni sevish" va "halollik" mavzulari bilan bog'liq bo'ldi. So'z birikmalari soddaligi, takrorlarning ko'pligi va ritmik tuzilma bolaning nutqiy idrokini yengillashtirgan. Shu bilan birga, bola psixologiyasiga mos ravishda epitet va metaforalarning o'rtacha chastotasi 1000 so'zga 7–9 birlikni tashkil etdi — bu esa matnni emotsional, lekin ortiqcha murakkab bo'lmagan uslubda saqlashni ta'minlagan.

Vizual qatlam tahlili esa bu jarayonga yangi o'lchov qo'shdi. Rasm, rang, shakl va joylashuv elementlari bola hissiyotini boshqaruvchi kuchli semiotik signallar sifatida namoyon bo'ldi. Masalan, "The Very Hungry Caterpillar" (E. Carle) asarida ranglarning o'tishi — yashildan qizilga — syujetdagi o'sish, to'yinganlik va o'zgarish g'oyasini vizual tarzda ifodalagan. O'zbek bolalar adabiyotida esa, xususan "Bolajon ertaklari" to'plamida issiq ranglar (sariq, qizil) pozitiv hissiy fonni, sovuq ranglar esa xavf yoki xafalikni bildiruvchi vosita sifatida ishlatilgan. Rasm va matn o'rtasidagi semantik moslik darajasi 78% ni tashkil etdi; bu o'rtacha darajadagi yuqori ko'rsatkich bo'lib, vizual elementlar asosan matn ma'nosini mustahkamlashga xizmat qilganini bildiradi.

Tahlil jarayonida multisemiotik uyg'unlik alohida e'tibor markazida bo'ldi. Bu qatlamda verbal va vizual belgilar o'zaro birlashib, yangi ma'no tizimini yaratadi. Masalan, "Bulut yig'laydi" kabi metafora bilan birga berilgan yomg'ir rasmi bolaning assotsiativ tafakkurida emotsional rezonansni kuchaytiradi. Shunday birikmalarda matnni faqat o'qish emas, balki his qilish va tasavvur qilish mexanizmi ishga tushadi. Empirik tahlil natijalariga ko'ra, bunday multisemiotik birliklarning hissiy ta'sir koeffitsienti (bolalar tomonidan anglash va eslab qolish darajasi asosida) 82% ni tashkil etdi.

[7] Jewitt, C. (Ed.). (2017). The Routledge handbook of multimodal analysis (2nd ed.). London: Routledge.
[8] Kress, G., & van Leeuwen, T. (2006). *Reading images: The grammar of visual design* (2nd ed.). London: Routledge.
[9] Halliday, M. A. K. (1994). An introduction to functional grammar (2nd ed.). London: Edward Arnold.
[10] Barthes, R. (1977). Image–Music–Text. London: Fontana Press.
[11] Hasanboyeva, O. (2022). *Bolalar adabiyoti nazariyasi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
[12] Jo'raeva, N. (2020). Bolalar adabiyotida lingvovizual uyg'unlik masalalari. Farg'ona: Davlat universiteti nashriyoti.
[13] Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

Tadqiqotda o‘zgaruvchilar bo‘yicha olingan natijalar quyidagicha umumlashtirildi:

Ko‘rsatkich nomi	O‘rtacha ko‘rsatkich	Ta’sir darajasi
Verbal dominanta (so‘z ma’nosi va syujet uyg‘unligi)	62%	O‘rta-yuqori
Vizual intensifikator (tasvir va rang orqali ma’no kuchayishi)	78%	Yuqori
Kontekstual uyg‘unlik indeksi (matn va rasm o‘rtasidagi semantik moslik)	74%	Yuqori
Kognitiv idrok koeffitsienti (bola tomonidan anglash va eslab qolish darajasi)	81%	Yuqori
Hissiy rezonans indeksi (matnga nisbatan emotsional reaksiya)	85%	Juda yuqori

Bu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar adabiyotida ma’no faqat til orqali emas, balki vizual belgilar orqali ham faol shakllanadi. Ayniqsa, rasm va so‘z o‘rtasidagi semantik moslik bola tafakkurida mantiqiy hamda emotsional bog‘lanishlarni yaratadi. Tahlil jarayonida bolalar bilan o‘tkazilgan kuzatuv natijalari ham bu xulosani tasdiqladi: respondentlarning 88 foizi rasm yordamida matnni yaxshiroq tushunganini, 76 foizi esa hikoya qahramonlari obrazini rasm orqali “yaqinroq his qilganini” bildirgan.

Natijalar, shuningdek, lingvosemiotik yondashuvning pedagogik samaradorligini ham ko‘rsatdi. Bolalar matnni ko‘p kanalli idrok asosida o‘qiganda, ularning diqqat konsentratsiyasi 1,5 baravar oshgani kuzatildi. Masalan, faqat matn bilan ishlagan guruh bolalari 6 daqiqadan so‘ng diqqatini yo‘qotgan bo‘lsa, rasm bilan birgalikda o‘qigan guruhda bu muddat 11 daqiqagacha cho‘zilgan. Shu bilan birga, vizual elementlar orqali bola matn mazmunini 30% tezroq eslab qolgan (test natijalari asosida).

Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, bolalar adabiyotidagi verbal, vizual va multisemiotik uyg‘unlik nafaqat estetik, balki kognitiv-pedagogik vazifani ham bajaradi. Rasm so‘zga ma’no yuklaydi, so‘z esa rasmni tahliliy anglashga undaydi — bu jarayon bola tafakkurida tildan tasvirga, tasvirdan his-tuyg‘uga o‘tuvchi ko‘pkanalli fikrlash mexanizmini shakllantiradi. Shunday qilib, matnni faqat til tizimi orqali emas, balki semiotik uyg‘unlikda o‘rganish bolalar ongida mantiq, tasavvur va estetik did birligini rivojlantiradi.

Umuman olganda, olingan natijalar gipotezani tasdiqladi: bolalar adabiyoti matnlarida verbal, vizual va multisemiotik elementlar bir-butun ma’no tizimini yaratadi, bu esa bola tafakkurining ko‘p qirrali idrokini shakllantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Muhokama. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bolalar adabiyotida verbal, vizual va multisemiotik qatlamlar o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, ko‘pkanalli idrokni shakllantiruvchi yagona tizimni tashkil etadi. Ushbu natijalar tadqiqotning kirish qismida ilgari surilgan gipotezani to‘liq tasdiqlaydi: bolalar matnlarida ma’no yaratish jarayoni so‘z bilan chegaralanmaydi, balki rasm, rang, shakl va harakat kabi belgilar orqali kengayadi. Boshqacha aytganda, matnning verbal shakli kognitiv faoliyatni, vizual komponent esa hissiy idrokni faollashtiradi; bu ikki yo‘nalishning integratsiyasi esa bola tafakkurining kompleks rivojlanishini ta’minlaydi.

Zamonaviy tilshunoslik va semiotika bu holatni **multimodal kommunikatsiya** deb ataydi. Unga ko‘ra, matnning ma’nosi turli belgilar tizimlarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Bolalar adabiyotida bu ayniqsa dolzarb, chunki bola uchun so‘z — bu faqat ma’lumot emas, balki his etish, ko‘rish, sezish va tushunish jarayonining bir qismidir. Tadqiqotda aniqlanganidek, vizual belgilar matnning semantik yadrosini kuchaytiradi, lekin uni takrorlamaydi — aksincha, yangi idrok yo‘lini ochadi. Masalan, qahramonning rasmda jilmayishi yoki ranglar uyg‘unligi so‘z orqali ifoda etilgan kayfiyatni hissiy darajada mustahkamlaydi.

Bu holat Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga to‘liq mos keladi. Bola yangi bilimni faqat o‘qituvchi yoki kattalar ko‘magida emas, balki o‘z idroki va tajribasi orqali o‘zlashtiradi. Vizual elementlar shu jarayonda vositachilik rolini bajaradi — ular bola tafakkuriga “ko‘makchi semiosfera” sifatida ta’sir ko‘rsatadi. Rasm bola uchun ko‘rish orqali muloqot qilishning tilga teng vositasiga aylanadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan kognitiv idrok koeffitsienti (81%) shuni ko‘rsatadiki, vizual matnlar bolaning e’tiborini uzoqroq muddat saqlab turadi va o‘qish jarayonini emotsional jihatdan yanada faol qiladi. Bu natijalar Hallidayning sistem-funksional lingvistikasidagi “ma’nolarning ijtimoiy vazifasi”[14] haqidagi g‘oyalar bilan uyg‘unlashadi. Bolalar uchun mo‘ljallangan matnlarda so‘z ijtimoiy ma’lumotni uzatadi, rasm esa uni emotsional tajribaga aylantiradi. Shu tarzda lingvistik ma’no va hissiy ifoda birlashib, bola uchun yaxlit ma’naviy-estetik tajriba yaratiladi.

Bu yondashuvning amaliy jihatdan muhim tomoni shundaki, bolalar adabiyotini o‘qitishda faqat matn tahliliga tayanish yetarli emas. O‘quvchi matnni **ko‘rish, tasavvur qilish va his qilish** jarayonida faol ishtirokchi bo‘lishi kerak. Bu esa o‘qituvchidan yangi metodik yondashuvni talab qiladi. Lingvosemiotik model asosida olib borilgan mashg‘ulotlarda bola faqat o‘quvchi emas, balki ma’no yaratuvchi sub’yektga aylanadi. U o‘qigan so‘zni tasvirdagi belgilar bilan taqqoslaydi, kontekstni o‘zi tahlil qiladi va shu yo‘l bilan mustaqil semantik fikrlashni o‘rganadi.

Muhokama jarayonida shuni ta’kidlash lozimki, bolalar adabiyotida verbal va vizual qatlamlar o‘rtasidagi uyg‘unlik nafaqat estetik vazifani, balki psixolingvistik rolni ham bajaradi. Tadqiqot jarayonida kuzatilgan holatlar shuni ko‘rsatdiki, bolalar rasm asosidagi matnlarni 30% tezroq anglaydi, bu esa kognitiv yuklamaning kamayishi bilan izohlanadi. Shuningdek, vizual elementlar yordamida bolaning emotsional reaktsiyalari barqarorlashadi — ular voqeani “ko‘rish orqali his etish” qobiliyatini shakllantiradi. Bu holat o‘z navbatida bola tafakkurida assotsiativ tarmoqni kengaytiradi: u so‘z, rasm va his o‘rtasida mustaqil bog‘lanishlar hosil qila boshlaydi.

Mazkur yondashuvning yangiligi shundaki, u o‘zbek bolalar adabiyotini an’anaviy lingvistik tahlildan kengroq kontekstda — semiotik va kognitiv makonda o‘rganishga imkon beradi. Avvallari bolalar matnlari ko‘proq didaktik va axloqiy jihatdan tahlil qilinib, ularning lingvosemiotik tabiati yetarlicha yoritilmagan edi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, matnni “so‘z va rasmning parallel nutqi” sifatida tahlil qilish bola tafakkurini yanada boyituvchi, zamonaviy o‘qitish modelini yaratish uchun muhim metodik asosdir.

Bundan tashqari, muhokama jarayonida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, har bir matnning vizual komponenti madaniy kodlarga ham tayanadi. Masalan, o‘zbek bolalar adabiyotida ranglar milliy ramziylikka ega: ko‘k — osmon, tinchlik; sariq — quyosh va hayot; yashil — tabiat va poklik timsoli sifatida ishlatiladi. Ingliz bolalar adabiyotida esa vizual ifoda ko‘proq psixologik yoki emotsional ahamiyat kasb etadi. Bu farqlar madaniy semiotika uchun qimmatli ma’lumot beradi — u turli xalqlarda bola ongining vizual tasavvurlari qanday shakllanishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari o‘zbek tilshunosligida yangi ilmiy yo‘nalish — **bolalar matnlarining multisemiotik tahlili** uchun nazariy poydevor yaratadi. Bu yo‘nalish kelajakda nafaqat adabiy tahlil, balki ta’lim texnologiyalarini ham boyitishi mumkin. Masalan, o‘qitish jarayonida bolalar uchun rasmli interaktiv matnlar, multimedia ertaklar yoki virtual vizual hikoyalar yaratish orqali o‘qish motivatsiyasini kuchaytirish mumkin.

Gipotezaga qaytadigan bo‘lsak, u to‘liq tasdiqlandi. Tadqiqotda aniqlanganidek, bolalar adabiyotida verbal va vizual belgilar o‘zaro uyg‘unlikda mavjud bo‘lib, bu holat bolalarning kognitiv, emotsional va estetik qobiliyatlarini bir vaqtda rivojlantiradi. Natijalar lingvosemiotik yondashuvning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega ekanini isbotladi: matnni ko‘pkanalli idrok qilish bolalar tafakkurini

[14]Halliday, M. A. K. (1994). *An introduction to functional grammar* (2nd ed.). London: Edward Arnold.

mustahkamlaydi, ularni ijodkor, hisli va tahliliy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqot natijalari asosida shunday xulosa qilish mumkinki, bolalar adabiyotidagi matnni faqat til birliklari orqali emas, balki ko‘p qatlamli semiotik tizim sifatida o‘rganish zarur. Chunki bolalar uchun yaratilgan asarlarda ma’no nafaqat so‘z orqali, balki tasvir, rang, harakat va joylashuv kabi vizual belgilar orqali ham shakllanadi. Shunday qilib, matn bola tafakkurining turli kanallarini bir vaqtning o‘zida faollashtiruvchi murakkab kommunikativ hodisaga aylanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, verbal qatlam matnning asosiy semantik o‘qini tashkil etadi va bolada ma’naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantiradi. Vizual qatlam esa bu ma’noni hissiy darajada mustahkamlab, bola idrokiga yaqinlashtiradi. Multisemiotik uyg‘unlik esa ushbu ikki qatlam o‘rtasida yangi semantik fazo hosil qilib, bola tafakkurida mantiqiy, hissiy va estetik fikrlashning sintezini yaratadi. Bu uyg‘unlik natijasida bola o‘qigan matnni faqat eslab qolmay, balki uni his qiladi, talqin qiladi va o‘z tasavvurida qayta quradi — bu esa haqiqiy o‘rganish jarayonining eng yuqori bosqichidir.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u o‘zbek bolalar adabiyotini an’anaviy lingvistik tahlildan kengroq kontekstda — ya’ni lingvosemiotik, kognitiv va madaniy-semiotik nuqtayi nazardan o‘rganishni taklif qiladi. Bu yondashuv orqali bolalar uchun yozilgan matnlarning ma’no hosil qilish mexanizmi chuqurroq ochiladi, til va tasvir o‘rtasidagi uzviy aloqa esa yangi ilmiy tahlil modelini shakllantiradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari o‘zbek bolalar adabiyotida ranglar semantikasi, obrazlarning hissiy rezonansi va vizual-kompozitsion tuzilmalarning pedagogik funksiyasini aniqlash imkonini berdi.

Amaliy jihatdan qaraganda, tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida ham katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, bolalar adabiyotini o‘qitishda lingvosemiotik modeldan foydalanish bolalarning matnga nisbatan qiziqishini oshiradi, idrok jarayonini jonlantiradi va o‘qish motivatsiyasini mustahkamlaydi. Rasmli ertaklar, interaktiv darsliklar, raqamli vizual hikoyalar yaratishda bu yondashuvdan foydalanish o‘quvchilar tafakkurini faollashtiruvchi samarali pedagogik usul sifatida xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, lingvovizual uyg‘unlikni o‘rganish bolalarda so‘z boyligini kengaytirish, tasavvurni rivojlantirish va muloqot kompetensiyasini shakllantirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning gipotezasi to‘liq tasdiqlandi: bolalar adabiyotida verbal, vizual va multisemiotik qatlamlarning integratsiyasi bolaning idrokini chuqurlashtiradi, ko‘pkanalli tafakkurni shakllantiradi va o‘qish jarayonini estetik tajribaga aylantiradi. Ushbu natijalar Vygotskiy, Kress va Halliday kabi olimlarning ijtimoiy-semiotik yondashuvlarini o‘zbek bolalar adabiyoti kontekstida amaliy isbotlab berdi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun bir necha istiqbolli yo‘nalishlar ham aniqlandi. Avvalo, bolalar adabiyotining lingvosemiotik modelini sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish — ya’ni rasm va matn o‘rtasidagi semantik moslikni avtomatik aniqlovchi algoritmlar yaratish — yangi ilmiy yo‘nalish bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, o‘zbek, ingliz va rus bolalar adabiyotlari o‘rtasidagi madaniy-semiotik farqlarni solishtirish orqali umumiy va milliy belgi tizimlarini aniqlash foydali natijalar beradi. Uchinchidan, ta’lim amaliyotida bolalar uchun “multimodal o‘qish texnologiyasi”ni joriy etish, ya’ni o‘qituvchining rasm, tovush, harakat va so‘z uyg‘unligidan foydalanishi orqali o‘quvchilarning faol o‘rganish kompetensiyasini rivojlantirish lozim.

Umuman olganda, mazkur maqolada olingan ilmiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, bolalar adabiyotida matn — bu nafaqat so‘zlar tizimi, balki bola tafakkurini estetik, axloqiy va hissiy jihatdan tarbiyalovchi ko‘p qatlamli semiotik makondir. Uni lingvosemiotik yondashuv asosida o‘rganish zamonaviy tilshunoslik uchun yangi nazariy va amaliy ufqlarni ochadi. Shu sababli, bolalar adabiyotidagi verbal, vizual va multisemiotik elementlarning o‘zaro uyg‘unligini o‘rganish nafaqat filologiya, balki pedagogika, psixolingvistika va madaniyatshunoslik sohalari uchun ham dolzarb ilmiy masala bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Barthes, R. (1977). *Image–Music–Text*. London: Fontana Press.
2. Carle, E. (1969). *The very hungry caterpillar*. New York, NY: World Publishing Company.
3. Halliday, M. A. K. (1994). *An introduction to functional grammar* (2nd ed.). London: Edward Arnold.
4. Hasanboyeva, O. (2022). *Bolalar adabiyoti nazariyasi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
5. Jewitt, C. (Ed.). (2017). *The Routledge handbook of multimodal analysis* (2nd ed.). London: Routledge.
6. Jo‘raeva, N. (2020). *Bolalar adabiyotida lingvovizual uyg‘unlik masalalari*. Farg‘ona: Davlat universiteti nashriyoti.
13.
7. Kress, G. (2010). *Multimodality: A social semiotic approach to contemporary communication*. London: Routledge.
8. Kress, G., & van Leeuwen, T. (2006). *Reading images: The grammar of visual design* (2nd ed.). London: Routledge.
9. Milne, A. A. (1926). *Winnie-the-Pooh*. London: Methuen.
10. Saussure, F. de. (1916). *Cours de linguistique générale*. Paris: Payot.
11. Turaeva, L. (2019). *Matnshunoslik va madaniy kodlar*. Toshkent: Fan nashriyoti.
12. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

INGLIZ TILIDAGI LAQAB VA TAXALLUSLARDA ALLITERATSIYA, ASSONANS VA ONOMATOPEYA HODISALARINING IFODALANISHI

Obidova Azizaxon Davronboy qizi
Farg‘ona davlat universiteti doktoranti
obidovaa8@gmail.com
Tel: +998910419293

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-oktabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 8-oktabr 2025-yil
Jurnal soni: 16
Maqola raqami: 45
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1282

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

alliteratsiya, laqab, taxallus, fonetika, stilistika, semantika, ingliz tili, onomastika, fonetik uyg‘unlik.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz tilidagi laqab va taxalluslar tizimida alliteratsiya hodisasining lingvistik, fonetik hamda stilistik jihatlari kompleks va ko‘p qirrali tahlil qilinadi. Tadqiqot zamonaviy antroponimika va fonostilistika nazariyalari asosida amalga oshirilgan bo‘lib, alliteratsiya shaxs nomining esda qolarli, estetik jihatdan jozibali va kommunikativ samarali bo‘lishini ta’minlovchi muhim fonetik-ekspressiv vosita sifatida qaraladi.

Maqolaning nazariy qismida laqab va taxalluslarning fonetik-uslubiy tuzilishi, ularning tarkibiy komponentlari, madaniy-milliy konnotatsiyasi hamda alliteratsiyaning pragmalingvistik va kommunikativ ahamiyati chuqur nazariy asosda yoritilgan. Alliteratsiya hodisasi nafaqat tovush takrorlanishi sifatida, balki murakkab lingvistik mexanizm, semantik kuchaytirgich va psixolingvistik ta’sir vositasi nuqtai nazaridan tadqiq etiladi.

Tadqiqotda alliteratsiyaning turli funksional ko‘rinishlari – mnemotexnik, ekspressiv, identifikatsiyalovchi va estetik funksiyalari – konkret til materiallari asosida tahlil qilinadi. Maqolada ingliz tilining turli davr va uslubiy qatlamlariga mansub 300 dan ortiq alliteratsiv laqab va taxalluslar korpusi o‘rganilgan, ularning strukturaviy-semantik tasnifi berilgan.

Shuningdek, maqolada alliteratsiyaning semantik yuklanish hosil qilishdagi o‘ziga xos roli, uning fonetik ma’no yaratishdagi mexanizmlari hamda assotsiativ aloqalar tizimi ochib beriladi. Alliteratsiya hodisasi assonans, konsonans va onomatopoeiya kabi boshqa fonostilistik hodisalar bilan o‘zaro aloqadorligi va farqli xususiyatlari qiyosiy-tipologik aspektda ko‘rsatib beriladi.

Kirish. Tilning fonetik imkoniyatlari inson tafakkuri, madaniyati va estetik didi bilan chambarchas bog‘liqdir. Alliteratsiya hodisasi ana shu fonetik imkoniyatlarning eng yorqin ko‘rinishlaridan biri sifatida so‘z o‘yinlari, laqab va taxalluslarning shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Ingliz tili onomastik tizimida alliteratsion laqab va taxalluslar nafaqat tovush uyg‘unligi, balki ifoda kuchini oshiruvchi stilistik vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. G‘arb tilshunosligida alliteratsiya asosan poetik va reklama matnlarida o‘rganilgan, biroq laqab va taxalluslar tizimidagi o‘rni nisbatan kam tadqiq etilgan. O‘zbek tilshunosligida ham bu yo‘nalishda ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ingliz tilidagi alliteratsion taxalluslarning lingvokulturologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish hali to‘liq o‘rganilmagan masala sanaladi.

Ushbu maqolada ingliz tilidagi laqab va taxalluslar yasalishida alliteratsiya hodisasining lingvistik va stilistik jihatlari nazariy tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Ingliz tilidagi laqab va taxalluslar tizimida alliteratsiya hodisasini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning turli yo‘nalishlari – fonetika, stilistika, onomastika va lingvokulturologiya – kesishmasida amalga oshiriladigan dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu bo‘limda alliteratsiya hodisasi, laqab va taxalluslarning lingvistik tabiati hamda ularning o‘zaro aloqadorligi bo‘yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Alliteratsiya hodisasi tilshunoslikda uzoq vaqtdan beri e’tibor markazida bo‘lib kelgan. Crystal alliteratsiyani fonetik-stilistik vosita sifatida ta’riflagan holda, uning nutqning musiqiyligi va estetik ta’sirini oshirishdagi rolini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, alliteratsiya faqat badiiy matnlarda emas, balki kundalik nutq, reklama va nomlash jarayonlarida ham keng qo‘llaniladi. Crystal fonetik takrorlanishning psixologik ta’siri haqida mulohaza yuritib, bunday tovush uyg‘unligining xotira mexanizmlarini faollashtirishi va ma'lumotni eslab qolishni osonlashtirishini ko‘rsatib beradi. Leech pragmatik nuqtai nazardan alliteratsiyaning kommunikativ funksiyalarini o‘rganib, uning nutqda muloqot samaradorligini oshiruvchi vosita ekanligini isbotlaydi. Olim alliteratsion tuzilmalarning tinglovchida ijobiy emotsional reaksiya uyg‘otishi va e'tiborni jalb etishdagi ustunligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Leech alliteratsiyaning implikatur (yashirin ma'no) yaratishdagi o‘rnini alohida ajratib ko‘rsatadi. Fromkin va Rodman fonologik jihatdan alliteratsiyani tahlil qilib, tovush takrorining til tizimidagi o‘rni va nutq mexanizmlaridagi ahamiyatini ochib beradi. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, alliteratsiya til tuzilmasining chuqur qatlamlariga tegishli bo‘lib, fonemalar o‘rtasidagi paradigmatik munosabatlarni mustahkamlaydi.

Algeo ingliz tilida so‘z yasalishi va onomastika masalalarini o‘rganib, shaxs nomlari tizimidagi fonetik qonuniyatlarni aniqlaydi. Olimning fikricha, alliteratsiya laqab va taxalluslar yasalishida produktiv usul hisoblanadi, chunki u nomning esda qolarliligini ta'minlaydi va shaxsga nisbatan muayyan munosabatni ifodalaydi. Algeo alliteratsion nomlarning tarixiy rivojlanishi va ularning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi o‘zgarishlarini kuzatadi. Millward va Hayes ingliz tili tarixini tadqiq qilib, alliteratsiyaning qadimgi german she'riyatidan boshlab zamonaviy ingliz tiligacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatadi. Ularning tahlillari shuni isbotlaydiki, alliteratsiya ingliz tilining genetik xususiyatlaridan biri bo‘lib, u turli davrlarda turli shakllarda namoyon bo‘lgan.

Metodlar. Metodologik jihatdan ushbu tadqiqotda quyidagi yondashuvlardan foydalaniladi:

1. Deskriptiv tahlil metodi — ingliz tilidagi alliteratsion laqab va taxalluslarning shakllanish usullarini tasvirlash, ularning fonetik va morfologik tuzilishini aniqlashda qo‘llaniladi.
2. Komponent tahlil metodi — laqab va taxalluslarning semantik tarkibini o‘rganish orqali, tovush takrori va ma’no uyg‘unligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi.
3. Lisoniy qiyoslash metodi — ingliz tilidagi alliteratsion nomlarni boshqa tillardagi o‘xshash hodisalar bilan taqqoslash orqali universal va milliy xususiyatlarni farqlash imkonini beradi.
4. Pragmatik tahlil metodi — laqab va taxalluslarning ijtimoiy va psixologik funksiyalarini, shuningdek, ular orqali shaxs obrazining qanday shakllanishini tahlil etishga xizmat qiladi.

Natijalar. Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi laqab va taxalluslarning shakllanishida alliteratsiya hodisasi fonetik, semantik hamda stilistik jihatdan o‘zaro uzviy bog‘langan murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Alliteratsion nomlar shaxsning obrazini ifodalashda, uni ijtimoiy-madaniy muhitda ajratib ko‘rsatishda, shuningdek, kommunikativ e’tiborni tortishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Birinchidan, fonetik nuqtayi nazardan, alliteratsiya tovush uyg‘unligi orqali nomning ritmik ohangini yaratadi. Masalan, *Mickey Mouse*, *Donald Duck*, *Busy Bill*, *Fighting Fred* kabi laqablar nafaqat

tovush takrori orqali, balki talaffuzdagi ritm va ohangdorlik orqali ham tinglovchida ijobiy estetik taassurot uyg‘otadi. Bunday tovush uyg‘unligi laqabni eslab qolish jarayonini osonlashtiradi, bu esa psixolingvistik nuqtayi nazardan uning kommunikativ samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, semantik jihatdan, alliteratsiya shaxs nomining ma’no qatlamini kuchaytiradi. Tovush takrori ma’lum bir emotsional semani yuzaga keltiradi: masalan, *Dirty Dan* kabi laqabda “d” tovushining takrori betartiblik, sustkashlik yoki salbiy bahoni ifodalasa, *Sweet Sue* laqabida esa “s” tovushi yumshoqlik, mehribonlik va samimiyatni ifodalaydi. Shu tariqa, tovush takrori semantik konnotatsiyani kuchaytiruvchi stilistik vosita vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, stilistik nuqtayi nazardan, alliteratsiya laqab va taxalluslarning individualizatsiyasini ta’minlaydi. U nom egasining o‘ziga xos jihatlarini, temperamentini yoki kasbiy faoliyatini ifodalovchi belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, sportchilar orasida *Dangerous Dave* yoki *Speedy Sam* kabi laqablar tezlik va jasorat timsoli sifatida, ommaviy madaniyatda esa *Marvelous Mary* yoki *Mighty Mike* kabi taxalluslar ijobiy obraz yaratishda qo‘llaniladi.

To‘rtinchidan, alliteratsiya madaniy-lingvistik kontekst bilan chambarchas bog‘liqdir. Ingliz tili madaniyatida tovush uyg‘unligi estetik mezonlardan biri sifatida qadrlanadi. Shu bois, nomlash jarayonida fonetik uyg‘unlik va ritmik muvozanat asosiy ahamiyat kasb etadi. Bu holat o‘z navbatida, ingliz xalqining so‘z estetikasi va fonetik go‘zallikka bo‘lgan qadriyatlarini aks ettiradi.

Beshinchidan, psixolingvistik tahlil shuni ko‘rsatadiki, alliteratsion nomlar inson xotirasida tezroq saqlanadi, chunki ular tovush jihatidan e’tiborni tortadi. Tovushning takrorlanishi, ayniqsa, nutq jarayonida miyaning fonologik kodlash mexanizmini faollashtiradi. Shu bois, reklama, siyosiy nutq, san’at va sport sohalarida alliteratsion nomlar keng qo‘llanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko‘ra, alliteratsiya hodisasi ingliz tilidagi taxalluslarda quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

1. Identifikatsion funksiya – shaxsni yoki obrazni boshqalardan ajratib ko‘rsatadi.
2. Emotsional-ekspressiv funksiya – ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalaydi.
3. Estetik funksiya – tovush uyg‘unligi orqali estetik zavq uyg‘otadi.
4. Kommunikativ funksiya – nomni esda qolarli va jozibador qiladi.
5. Kulturologik funksiya – jamiyatda shakllangan fonetik did va so‘z estetikasi bilan bog‘liq ma’naviy qadriyatlarni aks ettiradi.

Umuman olganda, natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi laqab va taxalluslarda alliteratsiya hodisasi nafaqat fonetik bezak, balki shaxs nomini ifodaviy, ma’nodor va madaniy jihatdan boyituvchi universal vosita sifatida xizmat qiladi. Bu hodisa nomshunoslik, stilistika va lingvokulturologiya kesishmasida o‘rganilishi zarur bo‘lgan muhim lingvistik jarayondir.

Muhokama. Ingliz tilida laqab va taxalluslarning shakllanishida alliteratsiya hodisasini o‘rganish tilshunoslik, stilistika, fonetika va sotsiolingvistika yo‘nalishlarining kesishgan nuqtasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarga tayangan holda olib boriladi. Alliteratsiya (lotincha “ad” – yaqin va “litera” – harf so‘zlaridan) – bu bir necha so‘zlarning boshidagi bir xil yoki o‘xshash undosh tovushlarning takrori orqali hosil bo‘ladigan fonetik hodisadir. Bu hodisa asosan she’riyat, maqol, aforizm, reklama, shuningdek laqab va taxalluslarda keng qo‘llanadi. Fonetik jihatdan alliteratsiya tovush uyg‘unligini, estetik zavqni, ritmik ifodani yaratadi. Til tizimida bu hodisa tovushning semantik yuklanishini kuchaytiradi.

Alliteratsiya — bu so‘z boshidagi bir xil yoki o‘xshash tovushlarning takrori bo‘lib, u estetik ta’sir, ohangdorlik va esda qolarli obrazni yaratish vositasi sifatida qadimdan qo‘llanilgan[1].

Tilshunos olimlar Leech, Fromkin & Rodman[2] ta’kidlashicha, alliteratsiya nafaqat badiiy adabiyotda, balki kundalik nutqda, reklama matnlarida va ayniqsa nomlash jarayonlarida ham muhim stilistik vosita hisoblanadi. Nomlash jarayonida tovush takrori so‘zga ohangdorlik va ritm bag‘ishlab, uning eslab qolinishini osonlashtiradi. Shu bois ingliz tilida yaratilgan ko‘plab laqab va taxalluslarda alliteratsion struktura keng uchraydi: *Daring Dan, Busy Bill, Sweet Sue, Mickey Mouse, Donald Duck* kabi misollar bunga yaqqol dalildir.

Olimlar Allan & Burridge[3] bu hodisaning pragmatik jihatini o‘rganib, alliteratsiyaning shaxsga nisbatan ijobiy yoki kinoyaviy munosabat bildirishda qo‘llanilishini ta’kidlaydilar. Bunda tovush takrori nom egasining xulq-atvori, fe’l-atvori yoki jismoniy xususiyatlarini ifodalovchi vosita sifatida ishlatiladi. Masalan, *Fighting Fred* laqabi kuchlilikni, *Lazy Larry* esa sustkashlikni bildiradi.

Fonetik jihatdan olganda, alliteratsiya tilda tovush uyg‘unligi va ritmik strukturani mustahkamlaydi[4]. Shu sababli u nutqning eshitiluvchanligini, eslab qolinishini va ta’sirchanligini oshiradi. Bunday xususiyatlar, ayniqsa, ommaviy madaniyat, sport, siyosat va san’at sohalaridagi laqab va taxalluslarda ko‘p uchraydi. Masalan, *Magic Mike* yoki *Clever Clint* kabi nomlar fonetik uyg‘unlik bilan birga obrazlilikni kuchaytiradi. Alliteratsiya ko‘pincha assonans (unli tovushlarning takrori) va onomatopoeiya (tovushga taqlid) bilan qo‘shilib keladi. Bu hodisalar birgalikda ishlatilganda nomning ifodaviy kuchi yanada ortadi. Masalan, ayrim etnik yoki ijtimoiy laqablar tovush taklidi bilan uyg‘unlashib, ironik yoki kinoyaviy ma’noni kuchaytiradi. Shunday qilib, alliteratsiya fonetik uyg‘unlikni yaratishda markaziy o‘rinda turadi.

Masalan:

a) Etnik laqablar:

Bean Bandit – ispan, portugal yoki lotin amerikaliklar uchun ishlatilgan laqab bo‘lib, ularning loviyani (bean) yaxshi ko‘rishiga ishora qiladi.

Black Barbie – qora tanli ayollar uchun ishlatilgan laqab; ular o‘zini oq tanli ayollarga o‘xshatishga intilishi orqali kinoyaviy ma’no kasb etadi.

Bomb Builder – arablar uchun stereotip asosidagi laqab; bu laqabda terrorizm bilan bog‘liq noto‘g‘ri assotsiatsiya mavjud.

Camel Cowboy – arablarni “tuya kovboyi” deb atash orqali ularning cho‘l madaniyatiga ishora qilinadi.

Cow Kisser – hindular uchun ishlatilgan laqab bo‘lib, ularning sig‘irni muqaddas hayvon sifatida ulug‘lashiga asoslanadi.

Lava Lamp – vulqon atrofida yashovchi gavaiyaliklar yoki orol aholisi uchun ishlatiladi.

Mangro-Monkey – qora tanlilar uchun kamsituvchi laqab bo‘lib, ularni tropik o‘rmonlarda yashovchi maymunlarga qiyoslaydi.

Snail Snapper – fransuzlarga nisbatan ishlatiladi, chunki ular salyangoz go‘shtini iste’mol qilishadi.

Trailer Trash – AQShda kambag‘al oq tanlilarga nisbatan ishlatilgan haqoratomuz laqab.

b) Maktab laqablari:

Tiny Tim – baland bo‘yli bolalarga kinoyaviy tarzda ishlatilgan laqab.

c) Siyosiy laqablar:

Dismal Denis – ingliz siyosatchisi Denis Healeyga berilgan laqab bo‘lib, mamlakatning og‘ir moliyaviy ahvoliga kinoya sifatida qo‘llangan.

d) Sport laqablari:

Pistol Pete – sportchi uchun ishlatilgan mashhur alliteratsion laqab bo‘lib, tezkorlik va aniqlikni anglatadi.

e) Oilaviy laqablar:

Captain Cuddles, Tiny Tornado, Lucky Legs, Lucky Lips – bu kabi laqablar oilaviy sharoitda mehr, iliqlik yoki hazil ifodalash uchun yaratiladi.

Assonans — bu bir xil yoki o‘xshash unli tovushlarning nutqda ma’lum oraliqda takrorlanishidir. Kuznets va Skrebnev ta’rificha, assonans odatda urg‘u tushgan bo‘g‘inlarda paydo bo‘ladi va so‘zga ritmik ohangdorlik beradi[5]. Assonans ma’no urg‘usini kuchaytiradi, so‘zga yumshoqlik yoki hissiy ohang baxsh etadi.

Masalan:

a) Etnik laqablar:

Crumpet-Stuffer / Crumpet-Sucker – britaniyaliklar uchun ishlatilgan laqab.

Curry-Muncher – hindular uchun ishlatilgan kinoyali laqab.

Flat-Back – oq tanli ayollarga nisbatan, ularning “silliq bel”lariga ishora qiladi.

[1] Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics (6th ed.). Blackwell Publishing.
[2] Leech, G. (1983). Principles of Pragmatics. London: Longman.
Fromkin, V., & Rodman, R. (1998). An Introduction to Language (6th ed.). Fort Worth: Harcourt Brace College Publishers.
[3] Allan, K., & Burridge, K. (2006). Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. Cambridge: Cambridge University Press.
[4] Roach, P. (2009). English Phonetics and Phonology (4th ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
[5] Kuznets, M. D., & Skrebnev, Y. M. (1960). Ocherki po stilistike angliyskogo yazyka [Essays on the Stylistics of the English Language]. Moscow: Uchpedgiz.

Hatchet Packer – hindular (indianlar) uchun ishlatilgan laqab.

Mud Duck – qora tanlilar uchun ularning teri rangiga ishora sifatida.

b) Maktab laqablarida:

Lanky-Panky – oriq bolalar uchun yaratilgan hazilomuz laqab.

c) Oilaviy laqablar:

Hot Chops, Sweet Cheeks, Sweet Knees – bu kabi laqablar iliq, mehrli ohang yaratadi.

Assonans ko‘pincha sof holatda emas, balki alliteratsiya va qofiyalanish bilan birgalikda qo‘llanadi.

Masalan:

Beaver-Beater (kanadaliklar uchun)

Chilli-Shitter (ispan yoki lotin amerikaliklar uchun)

Snicker-Licker (oq tanlilar uchun)

Thick Mick (irlandiyaliklarga nisbatan ishlatilgan haqoratomuz laqab)

Thatcher the Snatcher, True-Blue-Ted, Tricky Dicky, Wood Wolf – siyosiy arboblarga berilgan alliteratsion-assonansli laqablar.

Cuddly-Duddly, Killer-Diller – oilaviy konnotatsiyaga ega laqablar.

Onomatopoeiya — bu tovushga taqlid asosida so‘z yoki nom yaratish hodisasi bo‘lib, ingliz tilida ko‘pincha etnik guruhlarni nomlashda ishlatiladi. Bunday laqablar odatda millat vakillarining talaffuzi yoki nutq tovushlariga kinoyaviy taqlid sifatida yuzaga keladi.

Masalan:

Book-Book – filippinliklarga berilgan laqab.

Halee Halaa – hindular nutqiga taqlid asosida yaratilgan.

Hucka-Lucka – arablarning talaffuziga taqlid.

Ping-Pang – osiyoliklar uchun ishlatilgan kinoyali laqab.

Mottissa – qora tanlilar uchun, “More tea, Sir?” iborasining buzilgan talaffuzi asosida paydo bo‘lgan.

I.A. Kargapolovaning ta’kidlashicha, bunday laqablar nafaqat haqoratli ma’noga ega, balki ularni ishlatuvchi shaxsning o‘zining ham madaniy saviyasining pastligini ko‘rsatadi.Ya’ni, so‘zlovchi boshqani kamsitish orqali o‘zini ham past darajada ifodalaydi.

Xulosa. Yuqorida olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi laqab va taxalluslarning shakllanishida alliteratsiya hodisasi tilning fonetik, stilistik, semantik va madaniy qatlamlari o‘rtasidagi uzviy aloqani ifodalovchi muhim vositadir. Alliteratsiya faqat tovushlar uyg‘unligini emas, balki inson nomining estetik, emotsional va ijtimoiy qiymatini ham belgilaydi.

Birinchidan, alliteratsiya fonetik uyg‘unlik orqali laqab va taxalluslarning eshitiluvchanlik darajasini oshiradi, ularni eslab qolish va nutqda tez tanib olish imkonini beradi. Shu jihatdan, u tilning musiqiyligi va ohangdorligini namoyon etadi.

Ikkinchidan, alliteratsion nomlar semantik jihatdan obrazlilik va ifodaviylikni kuchaytiradi. Takrorlanuvchi tovushlar orqali nom egasining xarakteri, hissiy holati yoki ijtimoiy roli haqida bilvosita ma’lumot beriladi. Masalan, *Brave Ben*, *Dangerous Dave* yoki *Sweet Sue* kabi laqablar tovush uyg‘unligi orqali shaxsga baho, munosabat va emotsional rang beradi.

Uchinchidan, alliteratsiya stilistik vosita sifatida laqab va taxalluslarning estetik qiymatini oshiradi. U tilning nafosatini ta’minlaydi, nutqqa ritm, uyg‘unlik va ekspressivlik bag‘ishlaydi. Shu sababli, ingliz tilidagi ko‘plab sahna nomlari, yozuvchi taxalluslari va sportchilar laqablari aynan alliteratsion shaklda yaratilgan.

To‘rtinchidan, alliteratsiya hodisasi lingvokulturologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. U ingliz xalqining fonetik go‘zallik, tovush uyg‘unligi va so‘z estetikasi haqidagi qarashlarini aks ettiradi. Bu jihatdan alliteratsion laqablar nafaqat til hodisasi, balki madaniy fenomen sifatida ham qaraladi.

Beshinchidan, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, alliteratsiya laqab va taxalluslarda kommunikativ-pragmatik funksiyani ham bajaradi. Ya’ni, u nom orqali auditoriya e’tiborini jalb etadi, muloqotda emotsional ohang yaratadi va nom egasining imijini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi laqab va taxalluslar yasalishida alliteratsiya hodisasi nafaqat fonetik, balki semantik va stilistik ahamiyatga ega bo‘lgan vositadir. U laqablarning esda qolarli, ta’sirchan va emotsional jihatdan boy bo‘lishini ta’minlaydi. Alliteratsiya shaxs nomini madaniy kontekstda o‘ziga xos brendga aylantirishda, ijtimoiy tarmoq yoki ommaviy madaniyatda shaxs imijini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ingliz tilidagi laqab va taxalluslarda alliteratsiya hodisasi inson nutqining estetik va psixologik mexanizmlariga asoslangan fonetik san’at mahsuli hisoblanadi. Bu hodisani o‘rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy va kommunikativ jihatdan ham dolzarbdir. Shu sababli, alliteratsiya hodisasining ingliz tili onomastikasidagi o‘rni kelgusida yanada kengroq empirik material asosida tadqiq etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. — Oxford: Blackwell.
2. Algeo, J. (1992). Onomastics and Word-Formation in English. — Cambridge UniversityPress.
3. Millward, C. M., & Hayes, M. (2011). A Biography of the English Language. Wadsworth.
4. Xudoyberdiyeva, D. (2020). Ingliz tilida shaxs nomlari tizimi. — Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Кузнец М.Д., Скребнев Ю.М. *Очерк стилистики английского языка.* — Л.: Просвещение, 1960.
6. Каргаполова И.А. *Стилистические средства выражения экспрессии в английском языке.* — М., 1997.
7. Crystal D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language.* — Cambridge University Press, 2003.
8. Burridge K. *Blooming English: Observations on the Roots, Cultivation and Hybrids of the English Language.* — Cambridge, 2004.
9. Trudgill P. *Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society.* — London: Penguin Books, 2000.

KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Dildorxon Maxmudova,
Qo‘qon davlat universiteti
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari nomzodi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-oktabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 8-oktabr 2025-yil
Jurnal soni: 16
Maqola raqami: 46
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1338

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

kasbiy kompetentlik, uzluksiz ta’lim, pedagogik rivojlanish, malaka oshirish, o‘qituvchi faoliyati.

ANNOTATSIYA

